


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

Madaminova Surayyo Nuraddinovnaning

**5440500 «Geografiya» ta'lim yo'nalishi
bakalavr darajasini olish uchun**

Mavzu: Shovot tumani sanoat tarmoqlarini shakllanishi va rivojlanishi

Ilmiy rahbar:

A.G. Abdullayev

Urganch 2016 yil

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-bob. SANOAT ISHLAB CHIQRISHI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISH MUAMMOLARI	6-26
1.1. Sanoat rivojlanishi va hududiy tashkil etilishining ilmiy-nazariy asoslari.	6
1.2. Mintaqalar sanoatini rivojlantirish muammolari	10
1.3. Shovot tumanining viloyat xo`jaligi va sanoatidagi o`rni	15
2-bob. SHOVOT TUMANI HUDUDLARI RESURS SALOHIYATI VA ULARNING ISHLATILISHI	27-35
2.1. Tuman agroiklimiy sharoiti va tabiiy resurslari	27
2.2. Tuman aholisi va mehnat resurslari	29
2.3. Tumanda iqtisodiy resurslardan foydalanish ahvoli	34
3 - bob. SHOVOT TUMANI SANOATI HUDUDIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	39-49
3.1. Shovot tumani sanoati tarmoqlari tarkibi va ularning rivojlanishi	39
3.2. Tuman sanoat tarmoqlariga investitsiya jalb qilish va uni rivojlantirish maslalari	45
3.2. Shovot tumani sanoat tarmoqlarini rivojlantirish masalalari	48
XULOSA	54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	57

KIRISH

Respublikamiz xo'jalik sohalari mustaqillik yillarida rivojlanishning sifat jihatdan yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bozor munosabatlariga o'tish davrining ilk bosqichidayoq erkin bozor munosabatlariga o'tishning huquqiy negizi yaratildi. Islohotlar hayotning barcha jabhalarini qamrab oldi. 1995 yildan boshlab O'zbekiston jamiyatni isloh qilishning yangi davriga qadam qo'ydi. Ushbu bosqich bozor munosabatlariga o'tish tizimlarini shakllantirishni yakunlash, mamlakat xalq xo'jaligini har tomonlama rivojlantirish, milliy valutani barqarorlashtirish va uning ichki konvertatsiyasini ta'minlash bilan bog'liq. Bu bosqichda davlat mulkini xususiyashtirishni yakunlash hamda iqtisodiyotni xom ashyo etishtirib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yunaltirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, iqtisodiy islohotlarning yuqorida zikr qilingan ikkinchi bosqichida iqtisodiyotni barqarorlashtirish va xalq xo'jaligi o'zak tarmoqlari o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarishda aholi keng iste'mol mollariga ko'ra ularning ehtiyojini nazarda tutib, o'zgarishlar qilish va boshqa hayotiy masalalar hal qilinmoqda.

Mustaqillik tufayli mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarida qator tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, mamlakat xalq xo'jaligining yetakchi sohasi-sanoatda importning o'rnini bosa oladigan tovarlar ishlab chiqarish mulkni davlat tasarrufidan chiqarish orqali turli xil mulkchilik formalarini shakllantirish neft ishlab chiqarish ko'lamini keskin ko'paytirish hamda g'alla etishtirish geografiasini kengaytirish orqali iqtisodiyot tarmoqlari va aholining ushbu hayotiy muhim mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, eksportbop tovarlar ishlab chiqarish miqdorini ko'paytirish orqali davlat importi hajmini kamaytirib borishga qaratilgan yo'nalishlarga iqtisodiy siyosatda ustuvor ahamiyat berildi.

O'zbekiston iqtisodiyoti tubdan isloh qilinishi bilan uning yetakchi tarmoqlarida, bir tomondan, yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmida keskin o'zgarishlar kuzatilmoqda, ikkinchi tomondan esa, yil sayin davlat sektorining hissasi nodavlat sektoriga nisbatan pasayib borishi kuzatilmoqda.

Shuni eslatib o'tish joizki, mustaqillikning dastlabki yillarida boshqa MDH davlatlaridagi kabi bizning respublikamiz ham anchagina iqtisodiy qiyinchiliklarni boshidan kechirgan edi. Ular bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan xo'jalikda tarkibiy qayta qurish, eski respublikalar bilan iqtisodiy kooperatsiya va ixtisoslashuv aloqalarning uzilishi, hamda boshqa ob'ektiv va sub'ektiv sabablar tufayli sodir bo'lgan edi. Sobiq Ittifoq davlatlari orasida O'zbekiston o'tish davridayoq iqtisodiy barqarorliknigina emas, hatto uning o'sishini ta'minlay olgan yagona mamlakat bo'lib kelmoqda.

Shu bilan birga, respublikaning an'anaviy sanoat tarmog'i- yengil sanoat ham rivojlanib bormoqda. Ushbu sanoatga investitsiyalarni kiritish asosida qator qo'shma korxonalarini qurish muhim iqtisodiy muammolarni hal qilishga, mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga yordam berdi. Bu borada Respublika Prezidenti I.A. Karimov «yengil sanoatning paxta tozalash, to'qimachilik, ipak yigirish sohalari va boshqa tarmoqlarini zamonaviylashtirish, tugallangan texnologik jarayonni ta'minlovchi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va dunyo bozorida raqobatga bardosh bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish lozim», deb ta'kidlagan.

Biroq, mamlakat sanoatining rivojlanishida o'z echimini kutayotgan masalalar ham yo'q emas. Jumladan, sanoatda og'ir sanoat tarmoqlari yaqqol ustunligini saqlab kelmoqda. Yengil sanoatda, ayniqsa to'qimachilik sanoatida keyingi yillarda ijobiy siljishlar kuzatilayotgan bo'lsada, ushbu sohaning rivojlanishi uchun mamlakatda katta imkoniyatlar; xom ashyo, mehnat resurslari, ma'lum darajada qulay infrastruktura mavjud bo'lishiga qaramasdan, bu borada talay muammolar mavjud.

Respublika yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 1/3 qismiga yaqini agrar soha, aniqrog'i, paxtachilik majmui hissasiga to'g'ri keladi. Hozirgi vaqtda mamlakatda tayyorlanayotgan paxta tolasining 33-34 foizi turli darajada qayta ishlashga tortilgan, xolos. Binobarin, respublikamizda ushbu tarmoqni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar etarli.

Shu o`rinda ta`kidlash joizki, yengil sanoatining hozirgi holati va uning hududiy tarkibi, mavjud xom ashyo va mehnat resurslari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish talab darajasida emas. Shu bois, yengil sanoati va uning hududiy tashkil etilishini o`rganish mavzuning dolzarb masalalardan sanaladi.

Ayrim mintaqalarda u o`ziga xos xususiyat kasb etadi. Xususan, Xorazm viloti va uning tumanlarida yengil sanoat qayta ishlab tarmoqlari mahsulotining $\frac{1}{2}$ dan $\frac{3}{4}$ qismigacha bo`lgani beradi. Shovot tumani ham viloyatning ana shunday hududlari qatoriga kiradi.

Viloyat tumanlari iqtisodiyoti rivojlanishida bugunki kunda yengil sanoat sohasi hissasi katta bo`lmoqda. Bu borada Respublika Prezidenti I.A. Karimov 2013 yil Xorazm viloyati Xalq deputatlarining navbatdan tashqari 9-sessiyasida “yengil sanoat sohasi rivojlanishida “Bog`ot tekstil”, “Kottonteks”, “Darital tekstil”, “Jilasun”, “Koboteks” va “O`zteks Shovot” kabi korxonalarining hissasi katta bo`lmoqda. Men bugun fermerlar bilan uchrashganimda, “O`zteks Shovot” korxonasining ishga tushganini eshitib, xursand bo`ldim. Shovotlik fermerning aytishicha, odamlar har kuni bu zamonaviy binoni tomosha kilib o`tayotgan ekan. Bu ko`p narsani bildiradi. Bu bino shunchaki chiroy berish uchun emas, balki qishlokda yashayotgan ayollarni, qizlarimizni ish bilan ta`minlash, ularning hayotini yaxshilashga xizmat kilishini odamlar yaxshi tushunadi” deb ta`kidlab o`tdi.

1- bob. SANOAT ISHLAB CHIQRISHI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISH MUAMMOLARI

1.1. Sanoat rivojlanishi va hududiy tashkil etilishining ilmiy - nazariy asoslari.

Sanoat ishlab chiqarishi iqtisodiyotning moddiy va nomoddiy sohalarini texnologik qurollantiruvchi va aholini iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talabini qondiruvchi bo'g'inidir. Ushbu sohadagi innovatsiyalar iqtisodiyotning barcha sohalarida rivojlanish barobarida jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi. Buni jamiyat taraqqiyotining industrial, postindustrial davrlari deb nomlanishidan ham ko'rsa bo'ladi.

Sanoat ishlab chiqarishini vujudga kelishi va uning hududiy tashkil etilishi dastlab tartibsiz ko'rinishga ega bo'lgan. Keyinchalik asta-sekinlik bilan tarmoq ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga doir g'oya va nazariyalar vujudga kela boshladi. Xususan, 1909 yilda – Alfred Veberning sanoat shtandort to'g'risida ilmiy izlanishlar olib bordi. U o'zining diqqat-e'tiborini sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarga qaratdi.

Klasterlar majmualar singari tarmoqlar va hudud darajasida shakllantiriladi. Masalan, respublikamizda “Paxta”, “Turizm”, “Milliy transport tizimi” kabi klasterlarni, hududiy jihatdan esa erkin iqtisodiy zonalar (Navoiy EIIZ, Angren MIZ), alohida o'sish qutb va markazlari ham klaster shaklida rivojlanib borishi ko'zda tutilmoqda”.

Sanoat tarmoqlarini HICHM tarzida tashkil etish sobiq Ittifoqda tarqalgan bo'lib, uning asosida N.N.Kolosovskiyning HICHM va energiya ishlab chiqarish tsikllari haqidagi g'oyalari yotadi. SHu joyda aytish lozimki, ushbu g'oya o'z vaqtida xorijlik iqtisodchilar tomonidan ham e'tirof etilgan.

Respublikada mustaqillik yillarida sanoatning hozirgi kungacha bo'lgan taraqqiyotini mutaxassislar ko'pchiligi shartli ravishda uchta bosqichga ajratishadi. Ushbu bosqichlarning davri va ayrim jihatlarini asoslashda ma'lum farqlar ko'zga tashlansada ular umumiy jihatdan o'xshash. Xususan, sanoat rivojlanishining


birinchi bosqichi 1991-1997 yillarni, ikkinchi bosqichi 1997-2002 yillarni, uchinchi bosqichi 2002 yildan to hozirgi kungacha bo`lgan davrni qamrab oladi.

Dastlabki bosqichda respublikada iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi quvvatlarni tashkil etishga katta e'tibor qaratilgan. Ushbu davrda engil va oziq-ovqat sanoatida o'nlab yirik korxonalar barpo etildi. Ayniqsa, ushbu yillarda engil sanoat tarmog`ida ko`plab quvvatlar barpo etildi. SHu bilan birga, ushbu davrda mashinasozlik sanoatining yangi tarmog`i avtomobilsozlikka ham asos solindi.

Qishloq xo`jaligida ozuqa ekinlari etishtirishga katta e'tibor qaratildi. G`alla va boshqa ozuqa ekinlar maydonlari kengaytirildi. G`alla etishtirish 80-yillar oxiriga nisbatan bir necha borobar ortib 7,0 mln tonnadan oshdi.

Sanoat rivojlanishining ikkinchi bosqichi boshlanishi respublika iqtisodiyotining barqarorlashuv jarayoniga kirishi davriga to`g`ri keladi. Xususan, 1997 yilga kelib O`zbekiston Respublikasi Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi mamlakatlari orasida birinchi bo`lib ishlab chiqarish hajmi bo`yicha 1990 yilgi darajaga erishdi. Ushbu hol, mamlakatimiz rahbariyati tomonidan to`g`ri ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilib hayotga tatbiq etilganligi natijasidir. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanishning beshta ustuvor tamoyili va u asosida evolyutsion taraqqiyot yo`lidan borilishi yuqoridagi ijobiy holatlarga olib keldi.

YUqorida ta`kidlanganidek, ishlab chiqarishdagi barqarorlashuv mavjud sarmoyani mamlakat iqtisodiyotining asosiy ustunlari og`ir sanoat tarmoqlarida yangi quvvatlarni barpo etish va eskilarini qayta modernizatsiya qilishga imkon berdi. Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi, Qo`ng`irot soda, Zarafshon-Nyumont, SHo`rtan gaz-kimyoy majmui va SamKoCHavto va shunga o`xshash qator korxonalar barpo etildi. Ushbu davrda respublikada sanoat mahsulotlari eksporti o`tgan asrning 90 – yillar boshiga qaraganda ikki marotaba ortdi.



1.1.1-rasm. Respublika sanoati dinamikasi (oʻtgan yilga nisbatan foiz hisobida).


Manba: OʻzR davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida ishlangan.

Oʻzbekiston uchun mutlaqo yangi va strategik ahamiyatga ega boʻlgan sanoatning eng ilgʻor tarmoqlari avtomobilsozlik, biotexnologiya, selluloza-qogʻoz tarmoqlari, telekommunikatsiya tizimlari shakllantirildi. Oʻzbekistonda muvaffaqiyatli oʻtkazilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlar barqarorlashib, muttasil oʻsib bormoqda.

Jahon sanoati rivojlanishi tahlil etilsa shu narsa ayon boʻladiki, sanoat inqilobi isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarini quvvatlarini barpo etilishi bilan bogʻliq holda yuzaga kela boshlagan. Oʻtgan asr boshlari va oʻrtalarida asosan ogʻir sanoat tarmoqlarini ustuvor rivojlantirishga keng eʼtibor qaratilgan boʻlsa hozirda «B», yaʼni isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar guruhiga kiruvchi sohalar jadal taraqqiy qildirilmoqda. Hozirgi davrda qaysi mamlakat keng isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarish va uning eksportini yoʻlga qoʻya olsa jahon bozorida yuqori mavqega ega boʻlmoqda.

Sanoatning isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlari hozirda jahon iqtisodiyotining eng serdaromad sohalariga aylanib ulgurgan. Bu eng avvalo aholi soni va yashash darajasini ortib borishi bilan uzviy bogʻliqdir. Ushbu hol yaqin kelajakda isteʼmol, ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalarini yanada serdaromad boʻlib borishini taʼminlaydi. Ammo, aholi soni ortib borishi

ishlab chiqaruvchilar uchun ijobiy hol bo'lsada yaqin kelajakda resurs taqchilligi va ekologik muammolar keskinlashishi mumkin. Ushbu hol yangi texnologik echimlar izlash barobarida mavjud xomashyodan foydalanish va uni qayta ishlashning ilmiy asoslangan mintaqaviy echimlarini ham talab etadi.



1.1.2-rasm. Respublika eksporti dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida).

Manba: O'zR davlat statistika qo'mitasi ma'lumolari asosida ishlangan.

Umuman olganda, respublika sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish sur'ati va tarkibida ijobiy siljishlar ro'y beryapti, ammo shunga qaramasdan sohada ma'lum muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, asosiy quvvatlarning sanoat ishlab chiqarishi hududiy tarkibining nomuvofiqligi, ishlab chiqarish hajmida undiruvchi sanoat tarmoqlari ustunligi shular jumlasidandir. Barcha tarmoqlarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayoni ketayotgan bo'lsada qoloq texnologiyalar bilan qurollanganlik ham ma'lum darajada saqlanib qolmoqda. Ushbu hol sanoat tarmog'iga ham tegishli va respublika sanoati ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga ortib borayotgan bir paytda uning mintaqaviy kesimida ham ma'lum o'zgarishlar yasalmog'uda.

1.2. Mintaqalar sanoatini rivojlantirish muammolari

Hozirgi bozor munosabatlarga o'tish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash davrida mintaqaviy siyosatning amaliy ahamiyati yanada kuchaymoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha makroiqtisodiy barqarorlik 1996 yildan beri kuzatilmoqda; ba'zi viloyatlar, masalan, Andijon, Buxoro, Xorazm va boshqalar sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ayni vaqtda iqtisodiy salohiyati katta bo'lgan hududlar (Farg'ona, Samarqand, Navoiy viloyatlari) bu barqarorlikka kechroq erishdi {21, 23, 24}.

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda Asaka va Samarqand avtomobilsozlik, Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodlari, ko'pgina viloyatlarda qurilgan to'qimachilik korxonalarini va boshqalarning ahamiyati katta. Ammo, barcha qo'shma korxonalar ham samarali faoliyat ko'rsatishmayapti. Jumladan, mustaqillik yillarida barpo etilgan o'ndan ortiq to'qimachilik korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash muhim masala hisoblanadi.

Sanoatning boshqa tarmoqlaridagi vaziyat ham bir xil emas: chunonchi, Navoiy, Zarafshon, Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatlarida mahsulot ishlab chiqarish samarali, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ham chet el sarmoyadorlari bilan qayta jihozlangandan so'ng mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, Surxondaryoda Xo'jakon osh tuzi, Gulistonda farmatsevtika, Sho'rtan va Muborakda gaz-ximiya majmualari, Qo'ng'irotda soda zavodi kabi qator yangi korxonalar qurilib, respublikaning turli rayonlarida joylashtirilmoqda.

Ayni vaqtda qishloq xo'jalik sohasida ham strukturaviy (tarkibiy) o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, paxta maydonlarini qisman qisqartirish asosida g'allachilikka katta e'tibor berilmoqda. Bu esa qishloq xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishda o'zgartirishlarga olib kelmoqda. Ammo, eslatish

lozimki, agrosohada hozircha qator muammolar mavjud; ba'zi yillari ob-havoning noqulay kelishi tufayli bug`doy, sholi, paxta hosilining kamayishi ham uchrab turadi. Uning ustiga, tuproqning ikkilamchi sho`rlanishi natijasida anchagina ekin maydonlari qishloq xo`jaligi oborotidan chiqib qolmoqda. Mazkur holat agrosanoat majmui, qayta ishlash sanoatiga o`z ta'sirini ko`rsatadi.

Transport sohasidagi ijobiy o`zgarishlar ham mintaqaviy va yo`l mustaqilligini ta'minlash siyosati doirasida olib borilmoqda. Jumladan, /uzor-Boysun-Qumqo`rg`on, Uchquduq-Janubiy Qoraqalpog`iston temir yo`llari hamda Angren-Pop avtomobil yo`llarining qurilishi va kengaytirilishi mamlakat xo`jaligining hududiy tarkibida ijobiy o`zgarishlarga olib keladi.

Respublika rahbariyati ayniqsa qishloq joylarga katta e'tibor qaratmoqda-ki, bu ham bo`lsa mintaqaviy siyosatning o`ziga xos bir ko`rinishidir. Darhaqiqat, modomiki mamlakat iqtisodiyotining asosini qishloq xo`jaligi, aholisining 2/4 qismining ko`prog`i qishloqlarda yashar ekan, bu joylarda jiddiy o`zgarishlarga erishmay turib strategik vazifalarni hal etib bo`lmaydi. Shuning uchun qishloq joylarga sanoatni olib kirish, qishloq infrastrukturasi rivojlantirish, mehnat resurslari bandligini va aholi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish eng muhim muammolardan sanaladi. Albatta, bundan boshqa muammolar ham mavjud. Chunonchi, ilgari hududiy mehnat taqsimoti, gorizontal iqtisodiy aloqalar buzilganligi oqibatida ko`pgina og`ir sanoat korxonalarini faoliyati yaxshi emas, mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining anchagina qismi mujassamlashgan avvalgi yirik sanoat markazlarining (Chirchiq, Angren, Olmaliq, Bekobod va b.) rivojlanishi sustroq. Ayni vaqtda ichki mehnat taqsimoti keng ko`lamda yo`lga qo`yilmagan, ishlab chiqarishni noto`g`ri hududiy tashkil etilganligi sababli turli mintaqalarda ijtimoiy va ekologik muammolar biroz keskinlashgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mintaqaviy siyosat turli hududlarda turlicha olib boriladi: ba'zi iqtisodiy rivojlanishi to'xtab qolgan yoki sekinlashgan (masalan, Angren-Olmaliq sanoat rayoni) depressiv rayonlar xo'jaligi harakatga keltirilishi, aholisi zich agrosanoat rayonlarda (Farg'ona vodiysi) ish o'rinlarini ko'paytirish, ekologik tanglik vujudga kelgan Orol bo'yi kabi rayonlarda esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni to'g'ri tashkil qilish talab qilinadi.

Shunday qilib, mintaqaviy siyosatni amalga oshirish ishlab chiqarish kuchlarini u yoki bu hududda ustuvorroq rivojlantirish demakdir. Binobarin, mazkur siyosatning zaminida sanoat, qishloq xo'jaligi, aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini joylashtirish yotadi, chunki joylashtirish rivojlantirishning hududiy tomonidir.

Respublika milliy iqtisodiyoti to'la va mustahkam shakllanib borgan sari uning mintaqaviy siyosati nafaqat viloyatlarga, balki boshqa «muammoli» rayonlarga ham qaratiladi. Jumladan, hozirgi kunda Orolbo'yi mintaqasining ekologik holatini yaxshilash, bu katta hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Kelajakda alohida daryo havzalari, voha va vodiylar, tog' yoki cho'l hududlari ham davlatning mintaqaviy siyosatini ob'ekti sifatida ko'rilishi mumkin.

Sobiq Ittifoq parchalanib, yangi mustaqil mamlakatlar paydo bo'lishi bilan ilgari chegaralar davlat chegarasiga aylanib qoldi. Shu munosabat bilan chegaraga yaqin yoki o'ziga xos geografik o'ringa ega bo'lgan qishloq tumanlari (masalan, So'x, Farg'ona, Bo'stonliq, Olot, Urgut, Qo'rg'ontepa, Shovot, Sariosiyo va b.) ham viloyat va mamlakatning mintaqaviy siyosatida alohida e'tiborga ega bo'ladi {21, 23, 25}.

Xullas, mintaqaviy siyosat ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishda navbatma-navbatchilikni nazarda tutadi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy makoni va tarmoqlar tarkibida doimiy o'zgarishlar bilan birga sodir bo'ladigan dialektik jarayondir.

Davlatning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi roli, shuningdek, ayrim xo'jalik tarmoqlarining o'tish davrida bevosita uning qaramog'ida qolishi bilan asoslanadi. Bundan tashqari, faqat davlat strategik vazifalar, xalqaro munosabatlar va ichki mintaqaviy siyosatni amalga oshiradi. Ammo, shu bilan birga, o'tish davrida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishda ba'zi bir kamchiliklarga yo'l qo'yish xavfi tug'iladi. Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Hududlarga erkinlik berilishi ayni vaqtda ularning xo'jalik tizimini o'zicha, nazoratsiz rivojlanishi, mintaqaviy iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotga muvofiqlashmaslik xavfi;

- Hududiy mehnat taqsimotini yaxshi boshqarmaslik oqibatida mintaqalarda iqtisodiyot samaradorligining pasayishi;

- Ichki rayonlar va mintaqalararo iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanmasligi, turli darajadagi bozorlar shakllanishining qiyinlashuvi;

- Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarning saqlanib qolishi;

- Tabiiy resurslardan shoshma-shosharlik bilan noto'g'ri foydalanish, ekologik muammolarning yuzaga kelishi va keskinlashuvi;

- Ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishda qiyosiy qulaylik (D.Rikardo) qonunining buzilishi;

- Ishlab chiqarishning noto'g'ri regionlashuvi, eksport-import jarayonini amalga oshirishdagi ba'zi qiyinchiliklar va h.k. {21}

Tabiiyki, yuqoridagi kamchiliklar davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir qiladi. Zero, to'g'ri boshqarilmagan va tashkil qilinmagan demokratiya anarxiya, beboshlikka olib kelishi mumkin. Xuddi shunday, hududlar rivojlanishi to'g'ri tartibga solinmasa, boshqarilmasa mintaqalarda erkin raqobat muhiti, ochiq iqtisodiy munosabatlar to'laqonli vujudga kelmaydi; bunday sharoitda «regional xudbinlik» alomatlari paydo bo'lish ehtimoli saqlanib qoladi.

Demak, o`tish davri iqtisodiyoti, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va hududiy tashkil qilishining davlat tomonidan tartibga solib borilishi ob`ektiv qonuniyatdir. Ushbu vazifa eng avvalo davlatning mintaqaviy siyosati orqali amalga oshiriladi. Mintaqaviy siyosatning zaruriyati bir vaqtning o`zida barcha hududlar iqtisodiyotini bir darajada rivojlantirib bo`lmasligidan kelib chiqadi. Binobarin, mintaqaviy siyosat rivojlanishi mumkin va mamlakat uchun muhim bo`lgan ustuvor yo`nalish va tarmoqlarga qaratiladi. Shu mazmunda u mintaqaviy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi, amaliy (konstruktiv) yo`nalishi hisoblanadi; mintaqaviy siyosat hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi vaziyatni dinamik holda muvofiqlashtirish va barqarorlashtirishga harakat qiladi {21, 25}.

Mintaqaviy siyosatning asosiy maqsadi quyidagilar:

- Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni yumshatish va qisqartirish;
- Mahalliy tabiiy resurslardan foydalanish asosida mintaqaviy va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
- Mintaqalar yordamida mamlakatning eksport salohiyatini ko`tarish, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash;
- Ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish;
- Shahar va qishloq aholi manzilgohlarini rivojlantirish, urbanizatsiya hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solish va boshqarish;
- Ishlab chiqarish kuchlarini to`g`ri hududiy tashkil etish;
- Aholi bandligini yaxshilash va h.k. {21}

Yuqoridagi strategik vazifalarga turli yo`llar yordamida erishiladi. Buning uchun avvalambor hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini mutloq ko`rinishida tenglashtirish g`oyasidan voz kechish talab qilinadi. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish, ochiq iqtisodiyot yuritish, qulay investitsiya muhitini yaratish lozim. Xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilgan holda

o`zaro manfaatli qo`shma korxonalar qurish, turli yo`nalishdagi erkin iqtisodiy mintaqalarni shakllantirish hududlar rivojlanishiga katta turtki beradi {17, 21}.

Mintaqaviy siyosat alohida hududlarni tanlab olish asosida amalga oshiriladi, natijada iqtisodiy landshaft qutbiylashadi, o`sinh qutb va markazlari vujudga keladi. Har xil omil va sharoitlarni atroflicha tahlil qilish va rivojlanish imkoniyatlarini baholash orqali saralab olingan u yoki bu hudud iqtisodiyoti yuksalgandan so`ng navbat mamlakatning boshqa hududiga o`tadi. Natijada, iqtisodiy rivojlanish ham hududiy sikllik yoki davriylik xususiyatiga ega bo`ladi. Shu sababdan, ma`lum muddatda tanlangan hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga urg`u berilishi boshqa hududni kamsitish, imtiyozlarini cheklashni anglatmaydi. Chunki, keyinchalik bu hududga ham xuddi shunday e`tibor beriladi. Ammo mintaqaviy siyosat hududlarning o`zlarini ham faolligini nazarda tutadi. Shuning uchun mahalliy hokimiyatning bu borada izlanuvchan, tadbirkor bo`lishi talab etiladi.

1.3. Shovot tumanining viloyat xo`jaligi va sanoatidagi o`rni

1926 yil 29 sentabrda, tashkil etilgan. Janubdan Urganch va Qo`shko`pir tumanlari shimoli-sharqdan Gurlan tumani, shimoli g`arbdan Turkmaniston bilan chegaradosh. Maydoni 455.34 kv. km. Aholisi 146.7 ming kishi.

Markazi shahar tipidagi Shovot shaharchasi. Shovotdan Urganchgacha bo`lgan masofa 36 km. Tuman hududi viloyatning shimoli-g`arbida, asosan Shovot kanali sohilida joylashgan.

Rel`efi, asosan tekislikdan iborat bo`lib, shimolga tomon pasaya) boradi. Iqlimi keskin kontinental. Yillik o`rtacha harorat 11°, yanvarning o`rtacha harorati-6°, minimal harorat-32° iyulning o`rtacha harorati 27°, maksimal harorat 43°. O`simliklarning vegetatsiya davri 200 kun. Yillik yog`in miqdorm 90-100 mm. Tuman hududi o`rtasidan Amudaryodan boshlanadigan Shovot kanali o`tadi. Bundan tashqari Turkman yormish, Begyop, O`dachi, Qumyop, Somonli, Dovdon kabi kichikroq kanallar ham bor. Tuprog`i asosan allyuvial, sho`r tuproq, qumli

Tuproqlardan iborat. Zax suvlar oqiziladigan g'ozovot – Davdon kollektori tuman hududining janubi-g'arbidan, Shovot, O'zbekiston kollektori esa tuman shimolidan o'tadi {18}.

Yovvoyi o'simliklardan yulg'un, to'rong'il, oqbosh, yontoq, ajrik, ekan, qamish, pechak, sho'ra va boshqalar o'sadi.

Yovvoyi hayvonlardan; quyon, bo'rsiq, tipratikan, chiyabo'ri, tulki, ondatra bor. Sudraluvchilar ham anchagina qushlardan, kaptar, bedana, bulbul, o'rdak, chaykalar uchraydi.

Shovot tumani O'zbekiston Respublikasining shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan. Tuman shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa 35 km.ga cho'zilgan. Tumanning Shovot shaharchasi joylashgan kenglikdagi g'arbdan sharqda uzunligi 20 km atrofida.

Tuman g'arb, shimol va shimoli-g'arbdan Turkmaniston bilan, shimolda Gurlan tumani va janubiy chegaralari Koraqum orqali Qo'shko'pirga to'g'ri keladi Sharqda Yangibozor va Urganch tumanlari bilan chegaradosh. Yuqoridagi chegaralarning barchasi tekisliklardan o'tadi. Tumanning eng uzun tabiiy chegarasi Qoraqum cho'liga to'g'ri keladi. Bu qum Kopetdog' na Kaspiy dengizigaga boradi.


Tuman hududining aksariyati Kaynazoy erasining to'rtlamchi davr hozirgi zamon yotqiziqlaridan tashkil topgan. Chekka janubiy Qoraqum cho'li bilan chegaradosh rayonlarida neogen yotqiziqlari uchraydi. Tumanning shimoliy va sharqiy tomonlarida tabiiy to'siqlarning yo'qligi Arktikadan va Sibirdan sovuq havo massalarining bema'lol kirib kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Tuman iqlimi keskin kontinental bo'lib yillik amplituda juda yuqori. Maksimal va minimal haroratlar orasidagi farq 78° ga etadi. Tuman iqlimining tashkil topishida Qoraqum cho'li katta o'rin tutadi. Tuman hududining qumlar bilan o'ralganligi, havo haroratining 43° 45° darajagacha ko'tarilishigacha imkon yaratadi. Tuman yillik o'rtacha harorat $+12^{\circ}$ chekka janubiy qismda 13° ga etadi. Bu ko'rsatkich Shovot shaharchasida 13° ni tashkil qiladi {18}.

Tumanda yanvarning o`rtacha harorati -4° , eng past harorat -32° - -33° gacha boradi. Iyulning o`rtacha harorati $+28^{\circ}$. Tuman hududida yillik sovuqsiz kunlar o`rtacha 200 kunga yaqin.

Tuman iqlimining tashkil topishiga atmosfera tsirkulyatsiyasi, ya'ni havo massalarining almashinib turishi ham alohida o`rin tutadi. Viloyatdagi kabi tumanda ham erdan 2-3 km dan 12 kmgacha balandlikda asosan g`arbiy va janubi-g`arbiy havo massalari ustunlik qiladi.

ШОВОТ ТУМАНИ



КАРТАДА РАҚАМЛАР БИЛАН ИФОДЛАНГАН

- 1 Шовот шаҳарчаси ерлари
- 2 Шовотк. ш. х. 2-йч.
- 3 Қоғишлоқ аҳволий ерлари

ШАРТЛИ БЕЛГИЛАР

- Чегаралар
- давлатлар
 - туманлар
 - қишлоқ фуқаролар йиғинлари
 - ҳўжаликлар
- Аҳоли пунктлари
- Туманлар маркази
 - Марказий қишлоқлар
 - Бошқа аҳоли пунктлари
- Бошқа объектлар
- Автомобил йўллари
 - Каналлар
 - Коллекторлар
 - Куллар

Tuman viloyatning yog`in eng kam yog`adigan hududlardan biri sanaladi. Bu erda sug`ormasdan hech qanday dehqonchilik qilib bo`lmaydi. O`rtacha yillik yog`in 90-100 mm ni tashkil qiladi. Bug`lanish esa yog`in miqdoridan 18-19 marta yuqori. Yog`inning 40% bahor fasliga, 20-25% kuzga, 30-35% qishga, atigi 10% yozga to`g`ri keladi. Iyul, avgust, sentabr, oylarida o`rtacha oylik yog`in miqdori 2 mm ga to`g`ri keladi. Eng ko`p yog`in mart oyida (20-25 mm) yog`adi. Ko`p yillik kuzgi o`rtacha sovuq urishi (tushishi) tuman hududida eng kech 10 oktabr 1974 y va eng erta 27 sentabr 1973 yilda kuzatilgan. Bahorgi sovuq tushishi esa eng erta 1.03.1974 y. va eng kech 25.04.1965 yilda kuzatilgan. Tumanda havoning namligi Orol va Kaspiy dengizlari hisobiga shakllanadi. Uning o`rtacha yillik namligi 53-60% ga teng {18}.

Tuman aholisi asosan o`zbeklar, qisman ruslar, qozoqlar, koreyslar, tatarlar, turkmanlar va boshqalardan iborat. Aholining o`rtacha zichligi 1 kv. km ga 322,1 kishi {28}.


Tabiiy ko`payishi yuqori. Tumanda mehnatga yaroqli aholi soni 80100 kishini, 16 yoshgacha bo`lganlar esa 62000 kishini tashkil qiladi.

Tuman qishloq xo`jaligi yalpi mahsulotlarining 73% dehqonchilikdan olinadi, qolgan 27% chorvachilik va boshqa tarmoqlarga to`g`ri keladi. Tumanda bir necha sanoat korxonalarini bor. Bularga Shovot paxta tozalash zavodi, ikkita to`qimachilik majmui, g`isht korxonasi, Shovot un – krupa kombinati, Shovot podshipnik zavodi, 1 ta xususiy avtoxo`jalik mavjud, 55 ta umum-ta`lim maktabi, 6 ta kollej va litseylar faoliyat ko`rsatmoqda. 50 dan ortiq aholiga maishiy xizmat ko`rsatish shahobchalari ishlab turibdi. Shovot temir yo`l stantsiyasi Xorazm viloyatining qator tumanlari uchun taqsimlash punkti hisoblanadi.

Tuman 2012 yil yakunlariga ko`ra viloyat sanoat mahsulotining 8,8 foizini bergan. Ushbu ko`rsatkich o`tgan asr 90-yillarida ushbu ko`rsatkich biroz yuqoriroq 11-12 foiz atrofida bo`lgan va asta sekinlik bilan kamayib kelgan. Buning asosiy sabablaridan biri tuman qurilish, mashinasozlik tarmoqlari korxonalarini mustaqillik yillarida bir tekis rivojlanib ketmadi. Xususan Shovot

asfal-beton korxonasi, Shovot podshipnik kabi tuman sanoatining yirik korxonalari turg'unlikka uchradi.

1.3.2-rasm. -Xorazm viloyati sanoati hududiy tarkibi (2012 yil).



Manba: Xorazm viloyati statistika bo'limi ma'lumotlari

Tumanda 2012 yilda 31,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib yalpi sanoat mahsulotining deyarli yarmini tashkil etgan.

Tuman viloyat qishloq xo'jaligining 10-11 foiz mahsuloti beradi (1.1.-jadval). Ushbu ko'rsatkich ayrim yillari qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmiga qarab o'zgarib turadi. Tuman hozirgi davrda suv taqsimotining oxirida turganligi bois, qishloq xo'jalik mahsuldorligi bir oz pasaygan. Uning ixtisoslashuvidagi xususiyatlar viloyat va respublikadagi iste'mol mahsulotlarini ko'paytirish bilan bog'liqdir. Xususan, mustaqillik yillarida tumanda bug'doy maydonlari bir necha marotaba ko'paytirildi. Mevachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklar tashkil etildi. Hozirda intensiv bog'lar yaratish ustida ishlar olib borilmoqda.

Qishloq xo`jaligi chorvachilik chohasida ham jiddiy o`zgarishlar ro`y berdi. Chorvachilik mahsulotlarini etishtirishda yirik xo`jaliklarning hissasi kamayib dehqon xo`jaliklari ulushi ancha ortdi.

1.3.1.-jadval.

Xorazm viloyati iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari hududiy tarkibi.

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat ishlab chiqarish		XIM ishlab chiqarish xajmi		Qishloq xo`jalik yalpi mahsuloti		Eksport		Import	
	mlrd. so`m	2011 y. yakuniga nisbatan % da	mlrd. so`m	2011 y. yakuniga nisbatan %da	mlrd. so`m	2011 y. kuniga nisbatan %da	mln. AQSh doll	2011 y. yakuniga nisbatan % da	mln. AQSh doll	2011 y. yakuniga nisbatan % da
Viloyat bo`yicha	796,8	111,4	445,9	112,5	1486,8	108,5	155253,3	75,3	78363,5	92,2
Urganch shahar	213,6	116,1	247,0	114,4	43,2	104,7	6211,8	88,3	12933,8	86,8
Bogot tumani	78,3	107,4	23,7	109,5	141,9	106,5	21909,9	74,2	2350,2	35,7
Gurlan tumani	46,6	108,7	11,6	113,2	172,6	110,1	21375,1	69,5	799,1	134,8
Kushkupir tumani	36,7	105,9	7,4	109,6	127,0	107,7	12042,7	71,7	682,8	343,1
Urganch tumani	58,4	111,0	26,3	108,6	169,3	109,3	4735,7	149,1	24975,0	141,3
Xazorasp tumani	78,1	114,1	15,5	110,7	145,1	105,6	14391,8	87,1	1346,0	153,4
Xonka tumani	109,7	112,0	40,6	111,8	156,6	110,5	33390,2	83,4	4640,2	121,6
Xiva tumani	31,4	111,2	33,1	112,7	159,9	110,7	2464,0	117,3	2078,8	301,4
Shovot tumani	70,0	107,5	31,2	107,5	149,2	108,8	14604,4	82,8	10550,5	71,3
Yangiarik tumani	41,1	108,1	4,4	106,0	108,9	108,2	13887,9	53,3	514,6	403,3
Yangibozor tumani	32,9	108,3	5,1	107,6	113,3	108,4	10077,3	61,3	710,9	

Manba: Xorazm viloyati statistika bo`limi ma'lumotlari

Shovotdan tranzit avtomobil yo'llari o'tgan. Shovotning transport jihatdan qulay joylashganligi uning sanoati, transporti, qurilish tashkilotlarining o'sishiga turtki bo'ldi. Shovot temir yo'l tsantsiyasi qo'shni tumanlarga ham xizmat qiladi.

Tuman aholisi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, so'nggi 10 yil oralig'ida tuman aholisi salkam 20 foizga o'sdi. Aholi sonining yillik o'sishi ushbu oraliqda 1,5 foizdan 1,9 foizgacha tebranib asta-sekinlik bilan o'sib kelmoqda {28}.

Tumanda 7 shaharcha 11 ta qishloq fuqarolar yig'ini, 65 ta qishloq va 55 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud bo'lib aholi soni 146.7 ming kishini tashkil etadi.

1.3.2-jadval.

Shovot tumani ma'muriy hududi va aholi punktlari haqida umumiy ma'lumotlar (2014 y).

№	Aholi manzilgohlari	Er maydoni (km ²)	Aholi punktlari soni	Mahalla-lar soni	Xo'jalik soni	Aholi soni	Oila soni
1.	Shovot shah	6.96	-	8	3196	18073	4544
	Q.F.Y. lar						
2.	Shovot qal'a	42.76	4	5	2181	13007	2992
3.	Xitoy	61.27	6	5	2625	15312	3620
4.	Bo'yrachi	40.3	5	3	1695	8970	2071
5.	Beshmergan	18.93	4	2	936	4120	1175
6.	Kat qal'a	31.67	5	6	2530	11886	6003
7.	Chig'atoy qal'a	72.08	11	5	3115	17129	4433
8.	Cho'qli	30.7	4	3	1673	9225	2458
9.	Qiyot	34.0	10	5	2218	11525	3023
10.	Qangli	30.35	3	4	2446	11570	3365
11.	Ijtimoiyat	34.52	6	5	2405	12453	3512
12.	O'zbekiston Tuman bo'yicha	51.83 455.34	7 65	4 55	2824 27843	13448 146717	2930 40125

Manba: Shovot tumani hokimiyati statistika bo'limi ma'lumotlari

Tuman aholisi ancha zich bo'lib tuman aholi zichligi bo'yicha viloyatda o'rtacha o'ringa ega bo'lib ma'muriy hududlar doirasida 217,6 kishidan 381,2 kishini tashkil etadi. Faqat, tabiiy ravishda, Shovot shaharchasida aholi zichligi 2596.7 kishini tashkil etadi.

Tuman aholisi ancha zich va ma'muriy tizimi rivojlangan hududlardan sanaladi. Shu bois aholiga xizmat ko'rsatish sohalari ma'lum darajada taraqqiy qilgan hududlar qatoriga kiradi

1.3.3-jadval.

Shovot tumani aholisi hududiy tarkibi va zichligi				
№	Aholi manzilgohlari	Yer maydoni (km ²)	Aholi soni	Aholi zichligi
1.	Shovot shah Q.F,Y. lar	6.96	18073	2596,7
2.	Shovot qal'a	42.76	13007	304,2
3.	Xitoy	61.27	15312	249,9
4.	Bo`yrachi	40.3	8970	222,6
5.	Beshmergan	18.93	4120	217,6
6.	Kat qal'a	31.67	11886	375,3
7.	Chig`atoy qal'a	72.08	17129	237,6
8.	Cho`qli	30.7	9225	300,5
9.	Qiyot	34.0	11525	339,0
10.	Qangli	30.35	11570	381,2
11.	Ijtimoiyat	34.52	12453	360,7
12.	O`zbekiston Tuman bo`yicha	51.83 455.34	13448 146717	259,5 322,2


Manba: Shovot tumani hokimiyati statistika bo`limi ma'lumotlari

Shovot tumani sanoati tarkibida yengil sanoat asosiy o`rin tutadi. 2012 yilda tumanda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 58, 42 foizi yengil sanoati korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan. Bu holat tumanda xo`jaligining ixtisoslashuvi bilan bog`liqdir.

Sobiq Ittifoq davrida butun respublikada bo`lgani kabi tumanda qishloq xo`jaligida paxtachilik rivojlantirilgan. Shu bois, tumanda paxtachilik bilan bog`liq sanoat tarmoqlari shakllantirilgan.

Tuman iqtisodiyotida yengil sanoatning ulushi alohida. Qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan yengil va oziq - ovqat sanoati korxonalarini tuman agrosanoat majmui (ASM) ning tarkibiy qismidir.

1.3.2.-rasm. Tuman sanoati tarmoq tarkibi (2014 yil).



Rasm Xorazm viloyati statistika bo`limi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Tuman yengil sanoati unchalik tarmoqlanmagan industrial majmui bo`lib, uning tarkibida Shovot paxta tozalash korxonasi, to`qimachilik korxonalari, trikotaj hamda mahalliy sanoat qoshidagi tikuvchilik va ko`n - poyabzal, gilamchilik, chinni buyumlari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar va hunarmandchilik birlashmalasini o`z ichiga oladi.

1.3.4 - jadval.

Shovot tumanida asosiy yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi*.

yillar	1990	1995	2000	2006	2010	2012
mahsulotlar						
Paxta tolasi, ming t.	9301,7	11253,3	7531,7	9602,0	11267,3	10986,3
Ustki trikotaj, mln. dona	-	-	-	-	1.0	1,05
Ichki trikotaj, mln. dona	-	-	-	-	0.2	0.30

Gilam va gilam mahsulotlari, ming m. kv.**	1	0,8	0,5	0,2	0,3	0,3
--	---	-----	-----	-----	-----	-----

Izoh: *yirik va o`rta korxonalar bo`yicha.

**kichik tadbirkolik sohasi.

Manba: Shovot tumani statistika bo`limi ma`lumotlari.

Tuman yengil sanoati tarmoqlari 2012 yilida 15,0 ming. t. paxta, 1,35 mln. dona trikotaj mahsulotlari, hunarmandchilik gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Paxta tozalash sanoati yengil sanoat tarmoqlari orasida yetakchi o`rinda turadi. Shovot shaharchasida zamonaviy texnologiyaga ega bo`lgan paxta tozalash sanoati mavjud.

Paxta tozalash sanoati yengil sanoat tarmoqlari orasida yetakchi o`rinda turadi. Shovot shaharchasida zamonaviy texnologiyaga ega bo`lgan paxta tozalash sanoati mavjud.

Tuman paxta tozalash sanoati yagona boshqaruvda ishlaydigan paxta tayyorlash punktlari, quritish - tozalash tsexlari, transport xo`jaliklari, paxta tozalash korxonalarini o`z ichiga oladi. Tarkibida 1 ta paxta tozalash korxonai, 3 ta paxta punkti (Shovot, Monoq, Bo`yrachi) faoliyat ko`rsatmoqda. Paxtadan tola chiqishi o`rtacha 31 - 32 foizni tashkil qiladi. Tolasi ajratib olingan texnik chigit Urganch yog` - moy kombinatlarida qayta ishlanadi. Tumanda yiliga 10 - 12 ming. tonnadan ko`p tola va 2 - 2,5 ming tonnadan ortiq urug`lik, 13 - 15 ming tonna texnik chigit tayyorlanadi{28}.

Tumanda mustaqillik yillarida paxta maydonlarini 5000 ming gektarga kamaytirildi. Bu narsa paxta sanoati faoliyatiga ta`sir ko`rsatdi. Mustamlakachilik yillarida tumanda qayta ishlangan paxta tolasining 92 - 95 foizi Rossiya, Ukrainaga jo`natilar edi. Hozirgi vaqtda tuman paxta tolasini 10 ga yaqin xorijiy mamlakatlarga, jumladan, Buyuk Britaniya, Belgiya, Janubiy Koreya, Shvetsariya, AQSh, Turkiya va boshqa mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Keyingi yillarda

paxta respublikamizda har yili tashkil etiladigan paxta yarmarkasi orqali sotila boshlandi.

To`qimachilik sanoati trikotaj gazlama, trikotaj mahsulotlari va ishlab chiqarishni o`z ichiga oladi. O`zbekistonda to`qimachilikning tarkib topishi va rivojlanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Biroq, O`zbekiston to`qimachilik sanoati yaqin o`tmishda yaxshi rivojlantirilmadi. Bu sanoat uchun asosiy xom ashyo bo`lgan paxta tolasining g`oyat katta qismi o`zga rayonlarga tashib ketildi {7, 8, 9, 11, 12, 13, 14, 15}.

Respublika to`qimachilik sanoatini rivojlantirishning asosiy yo`nalishlaridan biri raqobatbardosh gazlama ishlab chiqarishni ko`paytirishdan iborat. Shu maqsadda deyarli barcha viloyatlarda zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan o`nlarcha yirik to`qimachilik korxonalarini qurildi, ayniqsa, AQSh, Italiya, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Koreya firmalari bilan hamkorlikda ip gazlama ishlab chiqaradigan yangi qo`shma korxonalar qurildi. Jumladan, "Supertekstil" paxta ip - yigiruv O`zbekiston - AQSh qo`shma korxonasi (Toshkent, 1993), ipak gilamlar ishlab chiqaradigan "Afg`on - Buxoro - Samarqand" qo`shma korxonalarini (Samarqand, Buxoro, 1993) va Turkiyaning "Yazeks" korporatsiyasi bilan hamkorlikda Qoraqalpog`istonning Ellikqal`a tumanida "Elteks" qo`shma korxonasining ip yigirish fabrikasi, To`ytepa, Toshkent (Ko`kcha) fabrikalari qurilishi hamda eskilarini ta`mirlash, jihozlash, to`qimachilik sanoatining istiqbolini ochib bermoqda. Ammo, to`qimachilik sanoatida yuz berayotgan katta o`zgarishlarga qaramasdan respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining kam qismi mamlakatimiz sanoat korxonalarida qayta ishlanmoqda. Yaqin kelajakda esa respublikada etishtiriladigan paxta tolasining teng yarmini qayta ishlashga erishish vazifasi qo`yilmoqda. Buning uchun mamlakatimizning barcha paxta etishtiradigan hududlarida turli quvvatga ega bo`lgan to`qimachilik korxonalarini qurilishi rejalashtirilgan {25, 26, 27}.

Tumanda ipakchilik, ip gazlama, jun gazlama sanoati, noto`qima materiallar sanoati mavjud emas, faqat pilla, jun tayyorlash, hunarmandchilik usulida gilam mahsulotlari (namat bosish, gilam to`qish) tayyorlash mavjud xolos.

Tumanda dastlabki pilla qabul qilish punktlarlari 1926 - 1932 yillarda Monoq, Shovot va Bo`yrachi shaharchalarida qurilgan. Tuman har yili 120 - 150 tonna pilla tayyorlanadi.

Tuman to`qimachilik sanoati majmuida trikotaj buyumlari ishlab chiqarish hamda tikuvchilik ham taraqqiy etmoqda. Sanoatning mazkur tarmoqlariga ixtisoslashgan yirik korxonalar (fabrika va kombinat)si Katqal`ateks, shaharlarda faoliyat ko`rsatmoqda. Mazkur korxonada chiroyli kiyim - kechaklar bilan birga qo`lda tikilgan, ko`rpa - to`shak, gulko`rpa, kabi buyumlar kasanachilik dasturiga asosan yuksak milliy san`at mahsuli darajasida ishlab chiqarilmoqda.

Tumanda ko`n - mo`yna sanoati mavjud emas, faqat turli teri mahsulotlari hunarmandchilik asosida oshlanadi va viloyat markazidagi shahobchalariga topshiriladi.

Tuman mahalliy sanoat va hunarmandchiligida chinni idishlar, tandir tayyorlash ham yaxshi yo`lga qo`yilgan. ayniqsa, O`zbekiston, Chig`atoyqal`a, Xitoy q. f. y. larida tandir ishlab chiqariladi.

Tuman yengil sanoatining yana bitta muhim tarmog`i mebel ishlab chiqarishdir. Uning geografiyasi ancha keng. Kichik biznes sektoriga tegishli kichik - kichik tseklar tumanning barcha qishloq fuqarolik yig`inlarida mavjud va nisbatan assortimentining ko`pligi bilan ajralib turadi.

Tuman mahalliy sanoatida metallga ishlov berish, yog`ochni qayta ishlash, xalq hunarmandchiligining zardo`zlik, tikuvchilik, to`quvchilik, pichoqchilik, badiiy kashtachilik, do`ppichilik, o`ymakorlik, misgarlik, zargarlik, kulollik, milliy cholg`u asboblari yasash, kosibchilik, milliy kashtachilik, gilamchilik va boshqa tarmoqlari rivojlantirilmoqda. O`zbekistonning milliy mustaqilligi mahalliy sanoat va ayniqsa, milliy hunarmandchilikni rivojlantirishning keng istiqbollari ochib berdi.

2-BOB. SHOVOT TUMANI HUDUDLARI RESURS SALOHİYATI VA ULARNING ISHLATILISHI

2.1. Tuman agroiklimiy sharoiti va tabiiy resurslari

Tuman o'ziga xos agroiklimiy sharoitga ega. Bunga tumanning geografik o'rni, geologik tuzilishi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi. Xususan, tuman hududi Xorazm tekisligida joylashgan bo'lib u shimoliy, shimoli-sharqish, g'arbiy tomonlarida tabiiy to'siqlarning yo'qligi Arktikadan va Sibirdan sovuq havo massalarining, Sharqiy Evropa ustidan qish, bahor hamda kuzda namga to'yingan havo massalarining bemalol kirib kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Tuman iqlimi keskin kontinental bo'lib yillik amplituda juda yuqori, yoz oylarida juda issiq, tropik havo massalari, qish chillasida esa arktik havo massalari egallaydi hamda u ayrim yillari 40 kungacha davom etishi mumkin. Maksimal va minimal haroratlar orasidagi farq 76 °S ga etadi. Ammo, issiq davr uzoq davr etadi bu erda effektiv haroratlar yig'indisi 2700 °S ni sovsiz kunlar sovuqsiz kunlar o'rtacha 195 kunni tashkil - qiladi. Bu paxta, sholi, makkajo'xori, anjir, uzum qovun, anor va boshqa tropik issiqsevar etishtirish uchun etarlidir.

Tumani agroiklimi va tabiati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning okean va dengizlardan minglab km uzoqda bo'lganligi uni tipik qit'a agroiklimini shakllanishiga, cho'l tabiat zonasida joylashganligi, yozning issiq, ob-havoning sutka davomida keskin o'zgarib turishi, yog'in-sochinning kamligi, havoning quruqligi, sug'orma dehqonchilik qilishni talab qiladi.

Agroiqlimiy radiatsiya resursi hududining geografik o`rniga, quyosh nurlarining tushishiga (Quyosh radiatsiyasiga) va yer yuzasining tuzilishiga bog`liq. Yillik yalpi radiatsiyaning 70-75% to`g`ri radiatsiya hisobiga to`g`ri keladi.

Tuman hududi respublikada yog`in eng kam yog`adigan hududlardan biri sanaladi. Bu erda yuqorida ta`kidlanganidek sug`ormasdan hech qanday dehqonchilik qilib bo`lmaydi. O`rtacha yillik yog`in 80 mm ni tashkil qiladi. Bug`lanish esa yog`in miqdoridan 18-19 marta yuqori. Yog`inning 40% bahor fasliga, 20-25% kuzga. 30-35% qishga, atigi 10% yozga to`g`ri keladi. Yog`ingarchilikning fasllar bo`yicha bunday taqsimlanishi qishloq xo`jaligi ekinlari vegetatsiyasini tezlatish yoki pasaytirishga ta`sir qilmaydi. Iyul, avgust, sentabr, oylarida o`rtacha oylik yog`in miqdori 2 mm ga to`g`ri keladi. Eng ko`p yog`in mart oyida (20-25 mm) yog`adi.

Yozda tuman hududida termik depressiya vujudga keladi. Natijada frontsiz, kam harakatchan past bosimli oblast vujudga keladi. Natmjada ochiq, quruq va juda issiq havo tarkib topadi. Termik depressiya havo massalarining transformatsiya jarayonlari shakllanishiga yordam beradi va havo haroratining tez ko`tarilishiga imkon yaratadi.

Tumanda yil davomida bir havo massasi ikkinchi havo massasi bilan almashinib turadi. Havo massalari almashinishining takrorlanishi shamolning kuchiga, yil fasliga, ob-havo sharoitiga, umuman hudud iqlimiga katta ta`sir qiladi. Yoz oylarida Qoraqumdan quruq, changli va issiq shamolllar ham esadi, u ekinlarning quritib, erlarni namini qochiradi.

Tuman iqlimi shakllanishida relefning ham roli katta. Xuddi viloyatning boshqa hududlariga kabi ham g`arb va shimol tomondan tog`lar bilan to`silmaganligidan sovuq havo massalari g`arb va shimoldan bostirib kirib qishki xaroratni ancha pasaytirib yuboradi.

Tuman agroiqlimiy sharoiti shakllanishida inson ham ta`sir ko`rsatadi. Aholining xo`jalik faoliyati natijasida katta maydonlarning relefi o`zgardi, yuzlab

gektar yangi erlar ochildi, kanallar shaharlar qishloqlar bunyod etildi. Natijada shu erlarda havoning harorati, namlik darajasi shamolning kuchi ham birmuncha o'zgaradi. Suv bilan yaxshi ta'minlangan, o'simlikka boy vohalarda yozda havoning harorati atrofdagi cho'llarga nisbatan 1,5-3° past, sutkalik amplituda kamroq, nisbiy namligi 10-15% oshiq, salqin bo'ladi, xullas o'ziga xos voqa iqlimi tarkib topadi.

Tuman hududi foydali qazilmalarga o'ta kambag'al. Bu uning hududining asosiy qismini antropogen, janubiy Turkmaniston Respublikasi va Qo'shko'pir tumanlari bilan chegaradosh joylarida neogen davrining jinslari tarqalgan. Antropogen davr yotqiziqlari ustida qalin madaniy tuproqlar bilan qoplangan. Tumanning qator hududlari xususan, Kat qal'a, Xitoy qishloqlari hududida soz tuproq uchraydi, janubiy qismlarida qurilishda foydalanish mumkin bo'lgan qum, kam miqdorda kvars qumi uchraydi.

Ushbu holat tumanda og'i sanoat tarmoqlarini rivojlantirishni ma'lum ma'noda cheklaydi. Bu erda hozirda arzon ishchi kuchiga tayangan holdagina ayrim sanoat tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud xolos.

2.2. Tuman aholisi va mehnat resurslari

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi hamda bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosabatlarning kirib kelishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta o'zgarishlarga olib keladi. Xo'jalikning turli jabhalarida mulkchilikning yangi shakllari joriy etildi, ijtimoiy sohalarda ham tub islohotlar amalga oshirildi.

Respublika siyosiy mustaqilligining dastlabki yillarida yuzaga kelgan noqulay vaziyat, muvaqqat iqtisodiy qiyinchiliklar mamlakatda sog'lom iqtisodiy munosabatlar muhitini shakllantirishning qator chora-tadbirlari, sa'y-harakatlar majmuini ishlab chiqishni va amalga oshirishni talab etdi. Respublika prezidenti I. A. Karimov tomonidan ilgari surilgan iqtisodiyot va ijtimoiy hayotni bosqichma-bosqich isloh etishga doir ijtimoiy-iqtisodiy mafkuraviy g'oyalari zamirida jamiyat va xo'jalik rivojlanishi asosiy yo'nalishlari belgilab olindi.


Mamlakatda xo`jalik tarmoqlarini har tomonlama rivojlantirish, investitsiya kiritish orqali yangi texnologiyalar bilan qurollantirish siyosati yurgizildi. Ushbu islohotlar va amaliyotlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga tadbiiq etilishi natijasida respublika 1997- yilda iqtisodiy barqarorlashuv pallasiga kirdi.

O`zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati va iqtisodiyotiga qo`shila borishi davomida qo`lga kiritilgan siyosiy-iqtisodiy o`zgarishlar, yangiliklar mamlakat aholisi ijtimoiy hayotida ham o`z aksini topib bordi. Xususan, respublikada ijtimoiy-iqtisodiy muhitning o`zgarishi aholining takror barpo bo`lishi va demografik ko`rsatkichlariga ta`sir etmasdan qolmadi.

Aholining takror barpo bo`lishi, tug`ilish, o`lim ko`rsatkichlari, tabiiy ko`payishi yoki, boshqacha aytganda, tabiiy harakati ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog`liq bo`lib, uning hududiy jihatlari ijtimoiy geografiyaning asosiy masalalaridandir. Aholinining tabiiy harakati turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog`liq bo`lib, kishilik jamiyati rivojlanishining turli bosqichlarida jahonning turli mintaqalarida o`ziga xos xususiyatlar kasb etgan. Insoniyat taraqqiyotining ilk davrlarida aholining takror barpo bo`lishiga tabiiy omillar katta ta`sir ko`rsatgan bo`lsa, keyinchalik iqtisodiy va ijtimoiy omillar asta-sekinlik bilan asosiy o`ringa ko`tarila borgan. Jumladan, XIX asr boshlarigacha aholining tug`ilish darajasi ko`rsatkichlarida G`arb va Sharq mamlakatlari o`rtasida unchalik farq kuzatilmagan.

Aholi tabiiy ko`payishida mintaqaviy farqlarning vujudga kelishi bevosita sanoat ishlab chiqarishining ijtimoiy hayotga kirib kelishi bilan bog`liq. Sanoatlashuv hamda urbanizatsiya jaryonining kuchayib borishi, rivojlangan mamlakatlarda tug`ilishning pasayishiga, pirovard natijada «aholi qarishiga» sabab bo`ldi.

2.2.1-rasm. Tuman aholi soni va uning dinamikasi (foizda)



Izoh: 1-aholi soni, ming kishi; 2-aholi soni o'sishi, foizda

Manba: Shovot tumani hokimiyati statistika bo'limi ma'lumotlari

Aholi moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi-mehnat resurslari, ya'ni iqtisodiy kategoriya sifatida chegaralanishi bilan birgalikda, u ayni vaqtda, ana shu boyliklarni iste'molchisidir. Shu bois, aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotda tutgan o'rni, ijtimoiy hamda demografik harakati doimo g'oyaviy-diniy, ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy-siyosiy, ilmiy-nazariy tadqiqotlar markazida bo'lib kelgan.

O'zbekiston hududida shu jumladan Xorazmda aholining takror barpo bo'lish xususiyatlari o'tmishda dunyoning boshqa mintaqalarinikidan unchalik farq etmagan. Uning sobiq ittifoq davrida rivojlanishi xususiyatlari ham industrial va agrar hududlari ma'lum rivojlanish an'analiga ega bo'lgan bo'lsada unchalik katta farqqa ega bo'lmagan .

2.2.1-jadval.

Shovot tumani aholisi hududiy tarkibi va zichligi

No	Aholi manzilgohlari	Er maydoni (km ²)	Aholi soni	Aholi zichligi
13.	Shovot shaharchasi	6.96	18073	2596,7
	Q.f.y. lari			
14.	Shovot qal'a	42.76	13007	304,2
15.	Xitoy	61.27	15312	249,9
16.	Bo'yrachi	40.3	8970	222,6
17.	Beshmergan	18.93	4120	217,6
18.	Kat qal'a	31.67	11886	375,3


19.	Chig`atoy qal'a	72.08	17129	237,6
20.	Cho`qli	30.7	9225	300,5
21.	Qiyot	34.0	11525	339,0
22.	Qangli	30.35	11570	381,2
23.	Ijtimoiyat	34.52	12453	360,7
24.	O`zbekiston	51.83	13448	259,5
	Tuman bo`yicha	455.34	146717	322,2

Manba: Shovot tumani hokimiyati statistika bo`limi ma'lumotlari

Sobiq Ittifoq davrida aholi sonining ko`payishini rag`batlantirish siyosati hamda respublikada asrlar davomida shakllangan etik va estetik, diniy qadriyatlar ham aholining tabiiy ko`payishidagi hududiy farqlarning yuzaga kelishiga zamin tayyorlagan. 80-yillarda mamlakatda qaror topgan turg`unlik va inqiroz, aholining takror harakatidagi barqarorlashuv, so`ngra bozor iqtisodiyoti sharoitidagi salbiy demografik rivojlanishiga olib keldi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida Xorazm viloyatida dastlabki yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan birgalikda ekologik muammoning ham keskinlashishi tuman aholisining tabiiy harakatiga salbiy ta`sir ko`rsatdi. Orolbo`yi ekologik muammosi ayniqsa qo`shni Qoraqalpog`iston Respublikasida fojeali tus oldi.

2.2.2-rasm. Shovot tumani aholisi zichlik xaritasi



Kartoxema muallif tomonidan tayyorlangan

Yuqoridagi omillar bozor iqtisodiy sharoitida o'zini yaqqol namoyon etdi. Ijtimoiy muhitning o'zgarishi aholi tabiiy harakatiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan

qolmadi. 1989-2012- yillar oralig`ida viloyat aholisi 146,4 foizga, 2001-2012- yillarda esa 120,1 foizga o`sdi va ushbu davrda aholining yillik o`rtacha ko`payish 2,1 foizni tashkil etdi. Shovot tumanida ham mustaqillikning dastlabki yillarida aholining tabiiy ko`payish sur`ati sezilarli ravishda pasaydi. 80-yillar oxirida tumanda aholining tabiiy ko`payishi 32-35 promille atrofida bo`lsa, mazkur ko`rsatkich 1994- yilda 24,3, 1997- yilda 21,7 promillega teng bo`ldi.

Tuman aholisi yildan-yilga ko`payib bormoqda. Xususan, so`nggi 10 yil oralig`ida tuman aholisi salkam 20,0 foizga o`sdi. Aholi sonining yillik o`sishi ushbu oraliqda 1,5 foizdan 1,9 foizgacha tebranib asta-sekinlik bilan o`sib kelmoqda (2.2-rasm).

Shovot tumani viloyatning aholisi ancha zich yashaydigan hududlari qatoriga kiradi. Tuman aholi soni bo`yicha viloyatda – o`rinda turadi.

Tumanda 7 shaharcha 11 ta qishloq fuqarolar yig`ini, 65 ta qishloq va 55 ta mahalla fuqarolar yig`ini mavjud bo`lib aholi soni 146.7 ming kishini tashkil etadi.

Tuman aholisi ancha zich va ma`muriy tizimi rivojlangan hududlardan sanaladi. Shu bois aholiga xizmat ko`rsatish sohalari ma`lum darajada taraqqiy qilgan hududlar qatoriga kiradi.

Tuman aholisi ancha zich bo`lib tuman aholi zichligi bo`yicha viloyatda o`rtacha o`ringa ega bo`lib ma`muriy hududlar doirasida 217,6 kishidan 381,2 kishini tashkil etadi. Faqat, tabiiy ravishda, Shovot shaharchasida aholi zichligi 2596.7 kishini tashkil etadi.


2012 -yil yanvar holatiga tumanda mehnatga layoqatli 82,0 ming kishi mavjud bo`lgan shundan 58,7 ming kishi iqtisodiyotning turli sohalarida band bo`lgan, 23,3 ming kishi mehnat faoliyati bilan shug`ullanmaydiganlarni (talaba, bola parvarishi bilan shug`ullanuvchi va xok) tashkil etib rasman 60 kishi ishsiz deb qayd etilgan.

2.3. Tumanda iqtisodiy resurslardan foydalanish ahvoli

Shovot tumani hududining katta qismi uchlamchi va to'rtlamchi davr yotqiziqlari bilan qoplangan. Ular ancha qalin bo'lib o'tkazilgan geologik qidiruv ishlari hudud Buxoro-Xiva yo'nalishida bo'lgani bois faqat organik mineral resurslar bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan xolos. Tuman hududida qurilish va keramika sanoatida ishlatilayotgan soz tuproq va qum mavjud xolos. Tumanning Xitoy, Katqal'a qishloq fuqarolari yig'inlari hududida kattaroq g'isht ishlab chiqarish korxonalari ishlab turibdi, qolgan hududlarida kichik-kichik mini tsexlar mavjud. Shu bilan birga tuman hududida kvars qumi asosida shisha idish ishlab chiqarish korxonasi mavjud bo'lib u viloyatdagi eng yirik korxonalaridan biri sanaladi. Hozirda ushbu korxonada 2012 -yil 22- noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ № 1856- sonli "2013-2015- yillarda Xorazm viloyati sanoati salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarori doirasida modernizatsiyalash ishlari olib borilmoqda .

Tumanning asosiy resurs salohiyati bu hozirda uning qishloq xo'jalik hamda mehnat resurslari bo'lib ulardan hozirda turli darajada ishga solingan.

2.3.1-rasm. Xorazm viloyati ekin maydonlari hududiy tarkibi (2013- y.)



Manba: Xorazm viloyati statistika bo'limi ma'lumotlari

Shovot tumani viloyatning eng yirik qishloq xo'jalik rayonlaridan biri sanaladi. Uning hududi 0,46 ming km² bo'lib hududning barcha erlari qishloq xo'jalik maqsadida foydalanishga yaroqli, yer fondining 95 foiz hududi sug'orma dehqonchilikda, qolgan qismi chorvachilik maqsadida foydalaniladi. Ilgari tumanda yaylov chorvachiligi ancha rivojlangan bo'lib chorva maydonlari sifatida Turkmanistonning Qoraqum cho'llari yondosh hududlaridan foydalanilgan.

Yuqoridan ko'rinib turibdiki Shovot tumani ekin maydoniga ko'ra viloyatda 3-o'rinni egallaydi va tabiiy ravishda qator qishloq xo'jalik ekinlarining asosiy qismini beradi.

2.3.1-jadval

Shovot tumanining viloyat qishloq xo'jalikidagi o'rtacha hissasi (2005-2012 yy.)

		Paxta	Don	Kartoshka	Sabzavot	Poliz	Uzum
1.	Bog'ot	8,3	10,8	4,4	8,8	7,6	36,3
2.	Gurlan	11,4	14,5	12,6	13,1	20,5	6,4
3.	Qo'shkipir	11,4	8,5	8,7	7,6	12,7	2,8
4.	Urganch	10,6	10,1	12,7	12,3	18,4	15,0
5.	Xiva	8,4	6,5	11,3	15,9	7,5	9,8
6.	Xonqa	12,3	12,9	10,4	8,6	3,1	4,3
7.	Shovot	11,4	10,3	13,3	8,8	8,4	4,4
8.	Hazorasp	9,8	10,7	2,4	6,6	10,4	12,5
9.	Yangiariq	6,7	6,8	15,3	10,7	4,8	3,7
10.	Yangibozor	9,7	8,8	8,9	7,6	6,5	4,7
11.	Viloyatda	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	

Jadval viloyat statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki tuman qishloq xo'jalik mahsulotlari, jumladan dehqonchilik mahsulotlari bo'yicha viloyatda etakchi o'rinlarda turadi. Xususan, paxta etishtirishda tuman viloyatda 2, g'alla etishtirish bo'yicha 5,

kartoshka etishtirish bo'yicha 2 va boshqalar bo'yicha ham oldingi o'rinlarni egallaydi. Ushbu hol chorvachilikda ham o'ziga yarasha manzara kasb etadi.

2.3.2-jadval

Shovot tumanining viloyat qishloq xo'jaligidagi o'rtacha hissasi (2005-2012 yy.)

№	Ma'muriy hududlar	go`sht	sut	tuxum	jun
1.	Bog`ot	8,5	8,6	5,6	14,3
2.	Gurlan	8,9	10,1	6,4	3,1
3.	Urganch	13,3	11,9	25,9	12,2
4.	Xiva	10,0	10,1	28,9	10,0
5.	Xonqa	9,5	10,3	6,0	7,5
6.	Shovot	10,7	9,9	5,3	8,4
7.	Hazorasp	10,7	11,7	6,7	17,6
8.	Qo`shko`pir	9,6	11,0	5,3	15,9
9.	Yangiariq	7,7	8,7	6,3	8,9
10.	Yangibozor	5,8	5,9	3,1	2,1
11.	Urganch sh	5,3	1,9	0,6	-
	Viloyatda	100,0	100,0	100,0	100,0

Jadval viloyat statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Xususan, go`sht mahsulotlari etishtirishda tuman faqat Urganch tumanidan keyin turadi, sut sog`ib olishda 6, tuxum va jun tayyorlashda 7- o'rinni egallaydi.

Yuqoridan ko`rinib turibdiki tuman qishloq xo'jaligi o'ziga xos ixtisoslashuvga ega, ammo ushbu etishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlariga sanoat usulida ishlov berish darajasi ancha past bo`lib ishlab chiqarishning ushbu sohalariga sarmoya kiritish dolzarb masalalardan sanaladi.

Tumanda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlari ancha qoloq. Faqatgina 2012- yilda yirik "Uzteks Shovot" to`qimachilik korxonasini ishga tushirilishi paxta xom ashyosini qayta ishlashni yangi darajaga olib chiqdi.

Sanoat ayniqsa qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirishning tuman sharoitida boshqa sohalardan qator ustunlikka egaligi hamda ularni rivojlantirish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan ekanligi quyidagi omillarga bog`liqdir:

- **eng avvalo**, fan-texnika va texnologik jarayonlar taraqqiyoti davomida mahsulotlar ishlab chiqarishda raqobat maydonini kengaytiradi va eksport imkoniyatini oshiradi;
- **ikkinchidan**, qishloq xo`jalik xom ashyosini qayta ishlovchi sanoati korxonalarini tashkiliy tuzilishidagi soddaligi va sharoitga moslashuvchanligidir;
- **uchinchidan**, engil va oziq-ovqat sanoati korxonalari uchun sarflangan investitsiyalarni tez o`zlashtirish va tez qoplash imkoniyatini beradi. Ayni vaqtda, moliyaviy qaltisliklardan tez chiqib keta oladi;
- **to`rtinchidan**, qishloq xo`jaligining va aholining tarmoq uchun ahamiyatli xom ashyoni etishtirishga ixtisoslashuvini ta`minlaydi;
- **beshinchidan**, hududlarda bandlikni oshirish yangi ish o`rinlarni yaratish imkonini beradi.

Endilikda qishloq xo`jaligi tovar etishtiruvchisi nafaqat mahsulot ishlab chiqarishi, balki keskin raqobat sharoitlarida uni sota olishi ham lozim. Buning uchun mahsulot quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- ishlab chiqarish xarajatlarini qoplaydigan hamda bozornikidan baland bo`lmagan narx o`rnata bilishi kerak;

-mahsulot xaridorgir bo`lishi kerak, ya`ni mahsulot etishtiruvchi bozor vaziyatini o`rganishi va raqobatga qarshi tura oladigan mahsulot ishlab chiqarishi lozim;

- mahsulot sifati bo`yicha ham ichki, ham xalqaro raqobatbardoshlik talablariga javob berishi lozim.

Xorazm vohasida ekologik vaziyatning murakkabligi qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ular: qishloq xo`jaligi erlari asosan sulfat-xlorid va xlorid tuzlari bilan sho`rlanishning ortishi, mineral o`g`itlaridan samarasiz foydalanish oqibatida haydaladigan qatlam ostidagi zich qatlam gorizonti ustida nitrat azoti; suvda erimaydigan, kationlarga almashinmaydigan kaliyli birikmalarning to`planib qolishi kabilardir.

Xorazmda oziq-ovqat sanoati uchun mahalliy xom ashyo etishtirish, qishloq xo`jaligi mahsuldorligini oshirish ekologik vaziyatni e`tiborga olgan holda quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi:

- har bir tumanga xos tuproq xususiyatlarini e`tiborga olgan holda egatlab va tomchilab sug`orishning samarali usullaridan foydalangan holda sug`orish ishlarini tashkil etish;

- tuproq xususiyatlarini e`tiborga olgan holda ilmiy tavsiyalarga tayanga holda kimyoviy o`g`itlardan unumli foydalanish va dehqonchilik madaniyatini oshirish;

- * tuproqning sho`rlanishi va ortiqcha minerallasuvini kamaytirish maqsadida zax qochirishda va gidrotexnik inshootlardan unumli foydalanish;

- * qishloq xo`jaligi erlari sifatini oshirish, sho`rlanish, botqoqlanish va ortiqcha minerallasuvni kamaytirish, qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligini oshirish uchun almashlab ekish sxemasini joriy etish.

Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi yuqorida ta`kidlaganimizdek, qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligini 10 foizga ortishiga hamda qishloq xo`jaligi erlarining sifatini 20 foiz yaxshilanishiga olib keladi.

Tumanni sanoatlashtirish orqali sarmoya kiritish siyosatini amalga oshirish barqaror sanoat ulushini ko`payishiga iqtisodiy o`sishni ta`minlashga va umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga, shuningdek, aholi turmush darajasini va sifatini ko`tarishga, mehnatga layoqatli aholi bandligini oshirishga,

jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning munosib o`rin egallashiga imkoniyat yaratadi.

3-bob. SHOVOT TUMANI SANOATI HUDUDIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Shovot tumani sanoati tarmoqlari tarkibi va ularning rivojlanishi

Tumanda yengil sanoat uzoq vaqt paxta tozalash sanoati, hamda mahalliy sanoati tarkibidagi gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish, chinni-fayans, ko`n, tikuvchilik, to`quvchilik hunarmandchilik tsex ishlab chiqarishidan iborat bo`lgan.

Bozor munosabatlariga o`tish davrida tumanda Katqal`ateks to`liq siklli trikotaj gazlama va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish korxonasi bunyod etildi. 2013 yil boshida esa yiliga 8 ming tonna paxtani qayta ishlab 7 ming tonna ip kalava ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan. “O`zteks Shovot” to`qimachilik korxonasi birinchi navbati ishga tushirildi.

2004 yilda Shovot shaharchasi “Muruvvatteks” korxonasining “Shovot teks” sho`ba korxonasi ishga tushirildi. Korxonada yiliga 50 000 dona trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan edi. Korxonada 2004 yilda 20, 1 mln so`mlik, 2005 yilda 237, 5 mln. so`mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Korxonada asosan ichki trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashib, mahmuloti ichki bozorda realizatsiya qilingan. 2006 yildan korxonada ishlab chiqarish ayrim sabablarga ko`ra pasayib ketdi va 2008 yilda korxonada bankrotlik e`lon.

2009 yilda korxonada bazasida “Ipoteka” bank krediti yordamida “Katqal`a teks” ochiq hissadorlik jamiyati o`z faoliyatini boshladi. 2009 yilda korxonaga 200

mln. so`mlik investitsiya joriy qilinib 30 ta yangi o`rni yaratildi hamda shu yilning o`zida 30,0 mln. so`mlik mahsulot ishlab chiqarildi (2. 3 - rasm).

2010 yilda 56, 0 ming dona paypoq, bez, polotentsa, marli ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish rejalashtirildi. Ammo, korxonada 2010 yilda ham 2011 yil dasturida ham rejalashtirilgan sarmoyaviy ishlar amalga oshirilmadi.

3.1.1.-jadval

"2013-2015 yillarda Xorazm viloyati sanoati salohiyatini rivojlantirish dasturi to`g`risida" dasturi doirasida Shovot tumanida sanoat va qishloq xo`jalik ishlab chiqarishini rivojlantirish rejasi*

№	Loyiha nomi	Loyiha mualliflari va ijrochilari	Yillik quvvati	Loyiha qiymati (ming. AQSh. doll)	Sarmoyalash manbai		Ishga tushirish muddatlari	Yaratilayotgan ishchi o`rinlari
					Ichki manbalar	Bank kreditlari		
1.	Tomat mahsulotlari ishlab chiqarish	OHI "SV SHovot" «O`ztabirkoreksport» Oziq-ovqat sanoati korxonalarini assotsatsiyasi	4000 t	1200,0	300,0	900,0	2015 yil	30
2.	Tomat mahsulotlari ishlab chiqarish	Sa`dulla bobo f/x, Oziq-ovqat sanoati korxonalarini assotsatsiyasi	100 t	200,0	20,0	180,0	2011 yil	11
3.	Shisha idishlar ishlab chiqarish	"O`zkimyosanoat" DAK	20,0 mln dona	5600,0	1400,0	4200,0	2014 yil	85
4.	Kolbasa mahsulotlarini ishlab chiqarish	"Rajab Matnazar" f/x, Oziq-ovqat sanoati korxonalarini assotsatsiyasi	30 t	60,0	15,0	45,0	2015 yil	6
5.	Urug` tayyorlash tsexini modernizatsiyalash va texnik qurollantirish	"Shovotdonmahsulotlari" HJ "Uzdonmahsulot" HK	49 ming t.	1200,0	200,0	1000,0	2015	18
6.	Ixtisoslashtirilgan chorvachilik va parrandachilik majmuini tashkil qilish	"O`zbekiston temir yo`llari" DATYK	1 ming yirik shoxli qoramol, 50 ming parranda	8000	8000	0	2013 yil	200
7.	Chorvachilik va parrandachilik fermalari uchun kombikorma ishlab	"Shovotdonmahsulotlari" HJ "Uzdonmahsulot" HK	15 ming t.	1900,0	250,0	1650,0	2013 yil	16

	bordyur va mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish	viloyati hokimligi	dona					
9.	Yengil mashinalar butlovchi qismlarini ishlab chiqarish	OAJ "Shovot podshipnik", HJ "O`zavtosanoat"	26, 0 ming	90,0	0	90,0	2013-2014 yil	5
10	Qishloq xo`jalik mashinalari uchun podshipniklar ishlab chiqarish	"Shovot podshipnik" OAJ, HJ "O`zavtosanoat"	19, 2 ming	100,0	0	100,0	2013-2014	5
11	Paypoq ishlab chiqarish	"Katqal`ateks" OAJ, "O`zbek yengilsanoat" DAK	10, 5 mln. juft	4000,0	0	4000,0	2013 yil	200
12	Ip kalava ishlab chiqarishni kengaytirish	"O`zteks Shovot" OAJ	7, 5 ming t	40 000	8 000	32 000	2015	200
13	Shirinmiya ildiziga chuqur ishlov berish	"Shovot bo`yani" agrofirma, "O`zfarm sanoat" DAK	20, 0 t	6000,0	1800,	4200	2015	70
14	Dori darmon ishlab chiqarish (kalanxoe asosida)	"Xorazm FITO farm" agrofirma, "O`zfarm sanoat" DAK	80, 0 t	5000,0	1500,	3500	2015	25
15	Paketli choy dori ishlab chiqarish	"O`zfarm sanoat" DAK	4 mln. paket	500	150	350	2014 yil	12
	Jami			73 970	21 635	52 125		895

*Izoh: Unga asosan viloyat sanoatida 253 loyiha amalga oshiriladi. Umumiy qiymati 462 million AQSh doll. miqdorida sarmoya jalb qilinib salkam to`qqiz ming yangi ish o`rinlari yaratilishi ko`zda tutilgan.

Manba: 2012 yil 22 noyabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ № 1856 sonli "2013-2015 yillarda Xorazm viloyati sanoati salohiyatini rivojlantirish dasturi to`g`risida" gi qarori ilovasi

2011 yilgi dasturga ko`ra korxonada 2,5 ming tonna ip kalava ishlab chiqarish hamda qurilishi tugallanmagan to`qimachilik korxonasida (hozirgi “O`zteks Shovot”) 3,0 ming t. ip kalava ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish rejalashtirilgan edi. Ammo, ular ayrim sabablarga ko`ra yillik dasturga kiritilmadi.

2012 yil 22 noyabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ № 1856 sonli "2013-2015 yillarda Xorazm viloyati sanoati salohiyatini rivojlantirish dasturi to`g`risida" gi qarori qabul qilindi va ushbu dasturga binoan Shovot tumani yengil sanoatida umumiy qiymati 44, 0 mln AQSh dollari bo`lgan ikkita loyiha amalga oshirila boshlandi {5}.

“Katqal`ateks” OAJ “O`zbekiyengilsanoat” DAK bilan hamkorlikda yiliga 10, 5 mln. juft paypoq ishlab chiqarish yo`lga qo`yish imkonini beradigan loyiha amalga oshirilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati 4, 0 mln. AQSh dollari bo`lib ushbu ishlar amalga oshirilishi natijasida tarmoqda 200 ta yangi ish o`rni yaratilmoqda. Bu tumanda aholini ish bilan ta`minlash va ijtimoiy himoyalashdagi katta qadamlardan biridir.

Agar viloyatda amalga oshirilayotgan ushbu ulkan dasturga to`xtaladigan bo`lmak uning doirasida viloyatimizda 253 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Viloyat iqtisodiyotiga qiymati 462 million AQSh doll. miqdorida sarmoya kiritilib salkam to`qqiz ming yangi ish o`rinlari yaratilishi ko`zda tutilgan. Dasturda ko`zlangan loyihalar amalga oshirilishi natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2015 yilda 2012 yilga nisbatan 2,1 barobarga, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 1,7, qurilish materiallari 4,4, mashinasozlikda 7,8, kimyo sanoati sohasida 3,7, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish 2,6, boshqa sohalarni 1,3 barobarga o`sishi rejalashtirilgan.

Yuqorida ta`kidlanganidek Shovot tumani yengil sanoatda “Katqal`ateks” OAJ bazasida paypoq ishlab chiqarish bilan birga qurilishi nihoyasiga etmagan korxonada ulkan “O`zteks Shovot” OAJ barpo etildi va unda ip kalava ishlab chiqarishni kengaytirish ko`zda tutilgan va qiymati 40,0 mln. AQSh doll. bo`lgan yirik loyiha amalga oshirildi.

«O`zteks Shovot» korxonasi 2013 yilda ishga tushirilgan bo`lib Shovot shaharchasida o`tgan asr 90 yillari boshlarida barpo etilgan, ammo qurilishi chala qolgan kompleks o`rnida barpo etildi va viloyatda turdosh korxonalar orasida eng yirigi sanaladi. U haqda viloyatda 2012 yil yakunlari bo`yicha o`tkazilan sessiyada Prezident Islom Karimov: «Men bugun fermerlar bilan uchrashganimda, «O`zteks Shovot» korxonasining ishga tushganini eshitib, xursand bo`ldim. Shovotlik fermerning aytishicha, odamlar har kuni bu zamonaviy binoni tomosha qilib o`tayotgan ekan. Bu ko`p narsani bildiradi. Bu bino shunchaki chiroy berish uchun emas, balki qishloqda yashayotgan ayollarni, qizlarimizni ish bilan ta`minlash, ularning hayotini yaxshilashga xizmat qilishini odamlar yaxshi tushunadi», dedilar.

Eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan ushbu korxonada yiliga 8000 tonna paxta tolasini qayta ishlash quvvatiga ega. Ushbu korxonada hozirda dastur bo`yicha 7,5 ming tonna ip kalava tayyorlaydigan quvvatlar barpo etilmoqda, uning keyingi navbatlari ip gazlama va tayyor trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqariladigan quvvatlar ham ishga tushirilsa 1700 o`rin ustiga yana 2000-2500 yangi ish o`rinlari barpo etilishi imkoniyatini beradi.

Tumanda bozor munosabatlariga o`tish sharoitida yengil sanoatning mahalliy sanoat tarkibidagi kichik korxonalar va tsexlari barham topdi yoki xususiylashtirilib yuborildi. Qator hunarmandchilik tsexlari va faoliyat turlari “Usto” birlashmasi tarkibiga kiritilib yuborildi.

Ayni kunda tumanning qishloq fuqarolik yig`inlarida yakka tadbirkorlik, kichik biznes sektorida 50 dan ortiq sub`ektlar o`z faolyaitini olib borishmoqda.

Tumanda hozirgi kunda kulolchilik, tikuvchilik, giam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish mavjud bo`lib asosan ichki ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan. Tikuvchilik, mebel tseklarining aksariyati Shovot shaharchasida joylashgan.

Tumanda ipak, jun xom ashyosidan ishlab chiqarish korxonalari mavjud emas, tozalangan jundan faqat namat bosish mavjud, gilam mahsulotlari esa olib kelinadigan kalava ipda to`qiladi.

Kartoxema muallif tomonidan tayyorlangan

Tuman yengil sanoati hududiy tarkibi monotsentrik ko`rinishga, bu uning aksariyat tarmoqlari quvvatlari tuman markazi Shovot shaharchasida joylashgan. Bu butun viloyatdagi kabi sanoat tarmoqlarining rivojlanganligi bilan bog`liqdir (2.4-rasm).

3.2. Tuman iqtisodiyotiga investitsiya jalb qilish va uni rivojlantirish masalalari

2012- yil 22- noyabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ № 1856- sonli "2013-2015- yillarda Xorazm viloyati sanoati salohiyatini rivojlantirish dasturi to`g`risida"gi qarori doirasida Shovot tumanida amalga oshirilayotgan investitsion dastur mavjud quvvatlarni modernizatsiyalash va qayta texnologik qurollantirishni qamrab oladi. Kimyo-farmatsevtika va to`qimachilik sanoati quvvatlarini hisobga olmaganda ishga tushirilayotgan korxonalarining aksariyati ilgari faoliyat yuritgan va keyinchalik inqiroz va turg`unlikka uchragan ishlab chiqarish ob`ektlaridir.

Hozirgi davrda tumanda ishlab chiqarishning ushbu sohalarini tiklash uning infrastrukturasi mustahkamlash barobarida eksport salohiyatini ham oshiradi (ip kalava, tomat, shirinmiya asosidagi preparat), ammo, tumanda mavjud resurslarning barchasidan foydalanishga imkoniyat yaratmaydi. Shu bois hozirda olib borilayotgan ushbu iqtisodiy amaliyotni tumanda qayta ishlash sohalarini rivojlantirishni birinchi bosqichi sifatida qaramoq lozimdir.

Tumanda 2015- yillarda keyingi davrda ishlab chiqarishni rivojlantirishni qat`iy davom ettirish lozimdir. Xususan tumanda etishtirilayotgan shirin-shakar meva, sabzavot va poliz mahsulotlari qayta ishlash tarmoqlari mavjud emas. Ayni vaqtda tumanda ishga tushirilgan "O`zteks Shovot" HJ" kabi yirik korxonar tuman markazida joylashgan.

Amaliyotdan ma`lumki o`z taraqqiyotida ortda qolayotgan mintaqalar iqtisodiyotini taraqqiy qildirishda rivojlangan hududlar salohiyatiga suyanish

tajribasi unchalik samara bermagan. Shu bois jahonning etakchi mamlakatlarida mintaqaviy muammolarni hudud ichki resurslariga tayangan holda bartaraf etish siyosati yurgizilmoqda. Tuman iqtisodiyotini rivojlantirish masalalarini bosqichma-bosqich olib borish, ya'ni ishlab chiqarishni «pastdan yuqoriga» qarab rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Tuman viloyatning yirik paxta, qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtiruvchi hududlaridan biridir. Tumanda sanoat ishlab chiqarishning rivojlantirilishi mavjud qishloq xo'jaligi xom ashyolarini darajada qayta ishlash bilan bog'liqdir. Bu, hozirda, tuman qayta ishlovchi sohalari orasida, paxta tozalashni hisobga olmaganida, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari etakchilik qilayotganligidan ham ko'zga tashlanadi. Ushbu tarmoq korxonalarining ko'pchiligi, ayniqsa to'qimachilik korxonalari mustaqillik yillarida barpo etildi.

Tumanda har yili 14-15 ming tonnagacha paxta tolasini tayyorlanadi. Uning hozirda 7-8 ming tonnasi «O'zteks Shovot», «Katqal'atekstil» kabi yirik to'qimachilik korxonalarini tomonidan (50 % atrofida) qayta ishlanmoqda. Ushbu miqdorning 1/5 qismi tayyor mahsulot holatiga etkaziladi. Ko'rinib turibdiki, tumanda, to'qimachilik sanoatini rivojlantirish, «O'zteks Shovot» HJ kabi, 7-8 ming tonna paxta tolasini qayta ishlovchi 1 ta yirik to'qimachilik kompleksini barpo etish imkoniyatlari mavjud.

Tumandada har yili 20-22 ming tonna sabzavot va poliz mahsulotlari, 4,2-4,5 ming tonna meva va uzum etishtiriladi. Ularning hech biri qayta ishlovga tortilmagan. Bu esa o'z navbatida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish uchun imkoniyatlar katta ekanligidan dalolat beradi. Tuman sanoatining boshqa tarmoqlari asosan tuman, viloyat agrasanoat majmuiga xizmat qiluvchi xususiyatga ega. Ularning rivojlanishi ichki talabga bog'liqdir.

Sanoat ishlab chiqarishni tuman resurs salohiyatidan foydalangan holda rivojlantirish uning xo'jalik tizimiga kompleks ta'sir etuvchi mexanizmga ega bo'lishi lozim. Ya'ni, mavjud xom ashyoni yuqori darajada qayta ishlashni yo'lga qo'yilishi iqtisodiyotning agrar sohasida mahsulot tayyorlashni intevsivlashishiga

ta'sir o'tkazadi. Talabning kuchayishi mahsulot hajmi va sifati ortib borishiga agrar sektorda faoliyat yurituvchilar daromadini ortishiga olib keladi. Iqtisodiyot sohalari o'rtasida bog'liqlikning kuchayishi ichki daromadning ortishi, sarmoya yig'ilishi, ishlab chiqarishning yangi tarmoqlariga asos solinishi, mavjudlarini samarali faoliyat ko'rsatishiga zamin tayyorlaydi. Tuman iqtisodiyoti sanoatlashuvining ikkinchi bosqichi ushbu shart-sharoitlar yaratilgandagina yuzaga keladi. Shu erda ta'kidlash lozimki, birinchi bosqichda asosan eksportga yo'nalgan sanoat tarmoqlari shakllanadi.

Ikkinchi bosqichda keng iste'mol mollari ishlab chiqarish tarmoqlarini taraqqiy qildirish maqsadga muvofiqdir. Bular nafaqat engil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarining davomi bo'lishi, balkim, mashinasozlikning kam xom ashyo talab, ammo serdaromad sohalarini, masalan, elektrotexnika, maishiy mashinasozlik kabi sohalarini qamrab olishi lozim. Hozirda mashinasozlikning keng omma uchun xizmat qiluvchi sohalari rivojlanayotgan mamlakatlarda tez taraqqiy qilmoqda. Evropadagi kamroq taraqqiy qilgan davlatlari (Finlyandiya, Vengriya, Chexiya), Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari (J. Koreya, Xitoy, Tayvan) mashinasozlikning ushbu sohalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqdalar. Sanoat rivojlanishining uchinchi bosqichi bevosita respublikaning jahon iqtisodiyoti integratsiyasiga qo'shiluv jarayoning davriy xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Tumanda yer resurslarining cheklanganligi, fermerchilikning joriy etilishi hamda yaqin kelajakda qishloq xo'jaligining texnologik qurollanish darajasining ko'tarilishi tufayli ortiqcha mehnat resurslarining vujudga kelishi vajidan sanoat o'sish qutblarini shakllantirish, urbanizatsiya jarayonini boshqaruv mexanizmlari orqali kuchaytirish dolzarb masalalardan sanaladi. Qishloq xo'jaligidan bo'shagan ortiqcha mehnat resurslarini yangi quvvatlar tashkil etish orqali sanoat ishlab chiqarishiga jalb etish chora tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Aks holda, tuman viloya va respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan doimiy emigratsiya hududlaridan biri bo'lib qoladi.

Tumanda sanoat ishlab chiqarishning sekin rivojlanishi urbanizatsiyalash darajasini pasayib borishiga olib kelmoqda. Xo`jalik monotsentrik ko`rinish (shaharchalar aksariyatining sanoat salohiyati juda past) kasb etib borayotgan bir paytda tuman markazi iqtisodiyoti asosini xizmat ko`rsatish sohalari tashkil etib qolmoqda.

Yuqorida ko`rib o`tilganidek tuman xo`jaligini bosqichma-bosqich ichki resurs imkoniyatlarga tayangan holda rivojlantirish, tuman markazlari va yirik qishloqlarda ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, ko`p markazli iqtisodiy makonni yaratish mavjud muammolarni echimini beradi. Ishlab chiqarishni hududiy tarkibini takomillashtirish, sanoatlashuv jarayoni evolyutsion yo`l bilan kuchaytirish viloyatning keyingi iqtisodiy taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi.

Jahonning zamonaviy xo`jalik tizimida turli iste`mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, samaradorligi yuqori ekanligi sababli, ommaviy tus olmoqda. O`zbekistonda ham ommaviy iste`mol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ikoniyatlar mavjud. Shu bois, tumanda, viloyatda butun respublikada strategik yo`nalishlarni tanlash va rivojlantirish, bunda hududlarni resurs salohiyatini e`tiborga olish, sanoatning tarmoq va hududiy tarkibini takomillashtirish, to`liq energetik siklini yaratish katta ahamiyatga ega.

3.3. Shovot tumani sanoat tarmoqlarini rivojlantirish masalalari

Hududiylik geografiya fanining asosiy tamoyillaridan bo`lganidek, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish qonuniyatlarini o`rganish va shu asosda yuqori samaradorlikka erishish ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning bosh masalalaridan biridir. Ishlab chiqarish kuchlarini mamlakat va mintaqalar miqyosida ilmiy asosda joylashtirish iqtisodiyotning to`laqonli rivojlanishiga zamin yasaydi. Aks holda, resurs imkoniyatlaridan foydalanishda qator muammolar, mintaqalar xo`jaligi rivojlanishida katta farqlar yuzaga keladi va oxir-oqibat turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kelib chiqadi.

Jumladan, iqtisodiyoti zaif mintaqalardagi muammolar natijasida, bu erdan doimo ortiqcha mehnat resurslarining boshqa hududlarga harakati kuzatiladi. Bu holat esa ushbu hududda qo`shimcha ijtimoiy-demografik muammolarni (aholi qarishi, tabiiy ko`payishning sustlashuvi, doimiy ichki-tashqi manfiy migratsiya saldosi va x.k.) keltirib chiqaradi.

To`g`ri, har qanday jamiyat ushbu muammolarni bartaraf qilishga harakat qiladi, iqtisodiyot tuzilmasining o`zi tabiiy ravishda takomillashishga «intiladi». Masalan, Italiyada qoloq janub muammosi doimo hukumat e`tiborida bo`lib, ushbu mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yumshatish uchun qator tarmoq korxonalari bunyod etilgan [5]. Ayni vaqtda sof iqtisodiy vositalar ham ishlab chiqarishni mintaqada ichida va mintaqalarga qayta taqsimlanishiga olib kelmoqda. Jahon bozoridagi kuchli raqobat resurs va mehnat talab sanoat tarmoqlarini xom ashyo va arzon ishchi kuchi mavjud mintaqalarga siljishiga sabab bo`lmoqda. Bunday holat yengil sanoatida ham kuzatilmoqda. Bu esa, o`z navbatida, yirik to`qimachilik xom ashyo bazasiga ega bo`lgan O`zbekistonda to`qimachilik sanoatini rivojlanishiga katta yordam beradi.

Tumanda haqli ravishda yaqin kelajakda ip gazlama to`qimachilik sanoati yetakchi o`ringa ko`tariladi. Chunki, tuman qishloq xo`jaligi paxta etishtirishga ixtisoslashtirilgan bo`lib, to`qimachilik sanoati 2013 yildan bu erda tarmoqning yirik 2 ta korxonasi faoliyat yuritayapti; yil oxirida paxta tolasining 65-70 foizi ular tomonidan qayta ishlandi.

Mustaqillik yillarida tuman ip gazlama to`qimachilik sanoatiga 50,0 mln. AQSh dollari miqdorida chet el sarmoyasi kiritildi. Faqatgina 2013 yilning o`zida tarmoqda qiymati 44,0 mln. AQSh dollariga teng bo`lgan 2 loyiha amalga oshirildi. Tuman ip gazlama sanoatida mavjud korxonalar, 8 ming tonnadan ortiq paxta tolasini qayta ishlash quvvatiga ega bo`lib, jami quvvatlar zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirilgan (-jadval).

To`qimachilik sanoatining ip gazlama tarmog`ini kelgusi rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ammo, bu esa, o`z navbatida, paxta tolasiga dastlabki

ishlov berish (birlamchi sikl) korxonalarini bo'lib qayta ishlanayotgan paxta tolasining 87,5 foizi faqat ip kalava sifatida qayta ishlashga tortilgan xolos.

"2013-2015 yillarda Xorazm viloyati sanoati salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida" dasturda ip gazlama tarmog'ida 400 ta yangi ish o'rinini yaratish, paxta tolasini qayta ishlashni 90 foiziga etazish va yiliga 10,0 mln. AQSh doll. qiymatiga teng mahsulot eksport qilish ko'zda tutilgan).

Ta'kidlash lozimki, amalga oshirilishi ko'zda tutilgan yirik dasturiy loyihaning o'zi diqqatga sazovor bo'lsada, u ayrim kamchiliklardan holi emas. Jumladan:

- sohaga kiritilishi mo'ljallanayotgan sarmoyaning katta qismi qayta texnologik qurollantirishga qaratilgan, ya'ni eski to'qimachilik korxonalarini bazasida ishlab chiqarishni tashkil etish rejalashtirilgan;
- Sarmoyaning katta qismi yarim mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan, ya'ni ishlab chiqarishning yuqori sikllari mavjud emas;
- Tumanda yengil sanoatning boshqat tarmoqlarini rivojlantirish yoki uning xom ashyo bazasini takomillashtirish ko'zda tutilmagan.

Ushbu holat yaqin kelajakda:


-ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishda hududning xom ashyo va mehnat resurslari salohiyatini e'tiborga olish;

-ishlab chiqarish faoliyat turlarini barpo etishda ichki va tashqi bozor talablarini o'rganish;

-tarmoqda energiya ishlab chiqarish sikllarini barpo etishda mavjud infrastruktura holati, malakali kadrlar va yordamchi tarmoqlarni (xom ashyo tayyorlovchi, kimyo, mashinasozlik) mavjudligini e'tiborga olish talab etadi.

Ip gazlama sanoati korxonalarini kichik va o'rta shaharlarda joylashtirish 60-80 yillarning o'rtalaridayoq qator tadqiqotchilar (I. Iskanderov, A. Mutalov, A. Burxonov, Z. Abdalova va b.) tomonidan ilgari surilgan. Bunda yirik korxonalar atrofida, u bilan texnologik kooperatsiyada bo'ladigan dastlabki va o'rta sikl

korxonalar-filiallarni barpo etish takliflari o`rtaga tashlangan. O`zbekistonda 70-80 yillarda barpo etilgan korxonalar (Buxoro, Andijon) va filiallari mazkur



Manba: Ro`zmetov D.R. O`zbekiston to`qimachilik sanoatining rivojlanishi va hududiy tarkibini takomillashtirish muammolari// geog. fan. nom. olish uchun yozilgan diss. – T.: Universitet, 2009 y. 22.

3.3.1-rasm. To`qimachilik industrial sikl va uning ichki aloqalari.

yondoshuv asosida barpo etilgan. Ushbu tamoyillar hozirda ham o`z kuchini yo`qotmagan bo`lsada, ma`lum o`zgarishlar kiritishni talab etadi.

Ipak gazlama sanoatida ishlab chiqarish hajmini oshirish va tarmoq hududiy tarkibini takomillashtirish qator tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Xususan tarmoqda yuqoridagi masalalar echimi:

- sifatli xom ashyo tayyorlash va uning hajmini ko`paytirish;
- tayyor mahsulot assortimentini ko`paytirish va uning sifatini yaxshilash sifatli kimyoviy tola va birikmalarni ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish;
- ichki va tashqi bozor talablarini izchil o`rganib borishni tashkil etish;
- tarmoq korxonalarini zamon talabiga moslab jihozlash;
- tarmoq hududiy tarkibini takomillashtirish hamda ixtisoslik yo`nalishlarini belgilashni talab etadi.

Tumanda paxta etishtirishning kamayib borishi tufayli, tarmoqga xom ashyo etkazib beruvchi paxta tozalash korxonalari quvvatlarining ma`lum qismi ham bo`sh qolgan. Bundan tashqari, tumanda mavjud korxonalar ma`lum turdagi paxta tola navini qayta ishlashga ixtisoslashilgan bo`lib, ularni joylashtirishda hudud imkoniyatlari hisobga olinmagan.

Tarmoqning xom ashyo tayyorlovchi majmui bilan aloqalarini takomillashtirish, eng avvalo, paxta tozalash sanoati iqtisodiy samaradorligini oshirishni talab qiladi. Bu esa viloyatlarda tarmoq quvvatlaridan foydalanish darajasiga hamda paxta xom ashyosi etishtirish areali radiusiga qarab mavjud quvvatlarni 30-50 foizga qisqartirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda tabiiy-geografik omil va mintaqaviy mehnat taqsimoti tufayli chorvachilikda tayyorlanayotgan jun xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, respublika jun gazlama sanoatida kamvol gazlamalar chetdan keltirilgan mayin tolali jun kalavadan ishlab chiqariladi. Ayni holat tarmoqda ishlab chiqarishning pasayib ketishiga sabab bo`lmoqda.

Mavjud xom ashyo asosan gilam to`qishda ishlatiladi. Binobarin, jun to`qimachiligining ushbu tarmog`i keyingi yillarda tez rivojlanib bormoqda. Biroq,

bu sohada ham xom ashyo va tayyor mahsulot ishlab chiqarish hududlari o`rtasidagi nomutanosiblik hamda hududiy tarkibni takomillashtirish muammosi mavjud. Respublikada etishtirilayotgan jun xom ashyosining katta qismini beruvchi Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida ishlab chiqarish quvvatlari mavjud emas {23}.

Tumanda tabiiy-geografik omil va mintaqaviy mehnat taqsimoti tufayli chorvachilikda tayyorlanayotgan jundan faqat gilam to`qiishda foydalanish mumkin.

Mavjud xom ashyo asosan gilam to`qishda ishlatiladi. Binobarin, jun to`qimachiligining ushbu tarmog`i keyingi yillarda tez rivojlanib bormoqda. Biroq, bu sohada ham xom ashyo va tayyor mahsulot ishlab chiqarish hududlari o`rtasidagi nomutanosiblik hamda hududiy tarkibni takomillashtirish muammosi mavjud..

Tumanda yaqin kelajakda ip gazlama sanoatining keyingi bosqichlarini ham rivojlantirish maqsadga muvofiqdir (3.2-rasm).

Yaqin kelajakda tumanda yana 4-5 ming tonna paxta tolasini qayta ishlash, jun qabul qilish va yuvish shahobchalarini barpo etish qo`shimcha 4-5 ming yangi ish o`rinlarini yaratish imkonini beradi.

Hozirgi kunda Shovot shaharchasida yengil sanoatning ip gazlama sanoatini rivojlantirish hisobiga yengil sanoatning yirik markazni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Keyingi bosqichda yirik qishloqlar va Monoq, Bo`yrachi kabi shaharchalarda tikuvchilik kabi tarmoqlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Bozor munosabatlarga o'tish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash davrida mintaqaviy siyosatning amaliy ahamiyati yanada kuchaymoqda. Respublika rahbariyati ayniqsa qishloq joylarga katta e'tibor qaratmoqda-ki, bu ham bo'lsa mintaqaviy siyosatning o'ziga xos bir ko'rinishidir.

Darhaqiqat, modomiki mamlakat iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi, aholisining 2/4 qismining ko'prog'i qishloqlarda yashar ekan, bu joylarda jiddiy o'zgarishlarga erishmay turib strategik vazifalarni hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun qishloq joylarga sanoatni olib kirish, qishloq infrastrukturasi rivojlantirish, mehnat resurslari bandligini va aholi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish eng muhim muammolardan sanaladi.

Respublika milliy iqtisodiyoti to'la va mustahkam shakllanib borgan sari uning mintaqaviy siyosati nafaqat viloyatlarga, balki boshqa «muammoli» rayonlarga ham qaratiladi. Jumladan, hozirgi kunda Orolbo'yi mintaqasining ekologik holatini yaxshilash, bu katta hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Kelajakda alohida daryo havzalari, voha va vodiylar, tog' yoki cho'l hududlari ham davlatning mintaqaviy siyosatini ob'ekti sifatida ko'rilishi mumkin.

1. sanoat tarmoqlariga ilg'or mamlakatlar texnologiyalarini jalb etish va xorijiy sarmoyalar hajmini oshirishga erishish;

2. oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini uzoq muddatli saqlash doirasidagi yangi texnologiyalarni e'tiborga olgan holda omborxonalarni qayta jihozlash va modernizatsiya qilish;

3. qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalariga yil davomida etkazib berish va ular faoliyatining uzluksizligini ta'minlash hamda ishchilar bandligini ta'minlashga ahamiyat qaratish;

4. mahalliy xomashyoni chiqindisiz, sifatli qayta ishlash asosida sanoat tarmoqlarida import hajmini qisqartirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish.

5. sanoati korxonalarini barpo etish, shakllantirish va rivojlantirishda Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyatiga (mehnat resurslari va tabiiy-resurs salohiyatiga, qolaversa, ekologik vaziyat murakkabligi va resurslarning cheklanganligiga) asosiy e'tiborni qaratish lozim;

6. xo'jalik aloqalarini rivojlantirish, o'zaro yordam va raqobatning zamonaviy va madaniy formasini shakllantirish maqsadida hududiy tizimini keng joriy etish;

7. sanoatni rivojlantirishda asosan iqtisodiy o'sishning intensiv omillariga e'tiborni qaratish va kuchaytirish talab etiladi.

8. oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or tarmoq va hududiy shakllarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak;

9. ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishda xizmat ko'rsatuvchi muassasalar va ularning filiallarni rivojlanishini ta'minlash kerak;

10. Xorazm viloyatida sanoat tarmoqlarida marketing strategiyasini rivojlantirish lozim.

YUqoridagi taklif va tavsiyalar tuman sanoati tarmoqlarini rivojlantirish va shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1995. - 268 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston, 1997. - 326 b.
3. Karimov I.A. Bizning kelajagimiz o'z qo'limizda-T.: «O'zbekiston», 1999, b.400.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 2000.- 350 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ № 1856 sonli "2013-2015 yillarda Xorazm viloyati sanoati salohiyatini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi Qarori, 2012 y.
6. Abdalova Z.T. Razmesheniya promishlennix predpriyatiy i razvitie nebolshix gorodov // Sotsialno geograficheskie aspekti territorialnoy organizatsii proizvoditelnix sil Uzbekistana // Nauchniy sbornik TashGU - Tashkent, 1988.- S. 55-59.
7. Abdunazarov H. yengil va oziq-ovqat sanoatini joylashtirish va rivojlantirish masalalari // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti, 21-jild. - T.: 2000. - B. 125-126.
8. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya.-T., 2004.
9. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. - T.: O'qituvchi, 1994. - 209 b.
10. Afanasevskiy E.A. Lyogkaya promishlennost: ekonomicheskie problemi razmesheniya - M.: Misl, 1976. - 261 s.
11. Ziyadullaev S.K. Promishlennost Uzbekistana i osnovnie ekonomicheskie problemi eyo razvitiya. - T.: Fan, 1967. - 329 s.
12. Vahobov H., Tillaboeva M. Iqtisodiy geografiya asoslari.-T.: O'qituvchi, 2001.- 132 b.

- 13.Ziyadullaev S.K. Regionalnie problemi ekonomiki Uzbekistana. - T.: Fan, 1986. - 64 s.
- 14.Ziyadullaev S.K., Lapkin K.I. i drugie. Proizvoditelnie sili Uzbekistana i perspektivi ix dalneyshego razvitiya.-T.: Fan. 1986 g.
- 15.Iskanderov I.I. Tekstilnaya promishlennost Uzbekistana. - T.: Uzbekistan, 1974. - 180 s.
- 16.Kertman L.E. Geografiya, istoriya i kultura Anglii. - M.: Visshaya shkola. - 1968. - 532 s.
- 17.Qishloq joylar demografiyasi. Prof. A.S.Soliev tahriri ostida.-T., 2005.
- 18.Qurbonniyozov R. Xorazm geografiyasi – Urganch, 1996 y.
- 19.Lipets Yu.G., Pulyarkin V.A., Shlixter S.B. Geografiya mirovogo xozyaystva. - M.: Vldos, 1999. - 400 s.
- 20.Lomakin V.K. Mirovaya ekonomika. - M.: YuNITI - DANA, 2003. - 736 s.
- 21.Mintaqaviy iqtisodiyot / Soliev A.S., Ahmedov E.A. va b./ Soliev A.S. tahriri ostida-T.: Universitet, 2003.-B. 304
- 22.Nazarov M., Tojiev Z. Ijtimoiy geografiya. O`quv qo`llanma.- T.,2003.
- 23.Ro`zmetov D.R. O`zbekiston to`qimachilik sanoatining rivojlanishi va hududiy tarkibini takomillashtirish muammolari// geog. fan. nom. olish uchun yozilgan diss. – T.: Universitet, 2009 y..
- 24.Ro`zmetov D.R., Xamroev M.O. Xorazm viloyati sanoatini rivojlantirish va hududiy tarkibini rivojlantirish masalalari // Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy geografiya: yutuqlar, muammolar va istiqbollar-T.: 2013, 97-100 b.
- 25.Soliev A., Maxamadaliyev R. «Iqtisodiy va sotsial geografiyaning asosiy muammolari». T. 2002y.
- 26.Soliev A., Abdunazarov H. Aholi o`shishi va xalq iste`mol mollarini ishlab chiqarishning hududiy xususiyatlari // O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. - T.: Universitet, 2003. №1 – 2.- B. 50 - 53.
- 27.To`xliiev N., Haqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O`zbekiston iqtisodiyoti asoslari.-T.: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.-278 b.

28. O`zR Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlari.
29. Yusupov A.T. Sovershenstvovanie otraslevoy i territorialnoy strukturi legkoy promishlennosti Uzbekistana.-T.: Mexnat, 1990.- 95 s.
30. <http://xorazm.uz/uz/>
31. www.Ziyo.net
32. <http://www.mahallagzt.uz/news/info/nazorat/1701/>